


**ЎЗБЕКИСТОН RESPUBLIKASI  
OLIV VA O'RTA MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI**

**OLIV TA'LIM TIZIMI PEDAGOG VA RAHBAR KADRLARINI QAYTA  
TAYYORLASH VA ULARNING MALAKASINI OSHIRISHNI TASHKIL  
ETISH BOSH ILMIV-METODIK MARKAZI**

**O'ZBEKISTON MILLIV UNIVERSITETI HUZURIDAGI PEDAGOG  
KADRLARNI QAYTA TAYYORLASH VA ULARNING MALAKASINI  
OSHIRISH TARMOQ (MINTAQAVIV) MARKAZI**



**«JAHON SIVILIZATSIYASI TARIXINING  
O'RGANISH MUAMMOLARI»  
MODULI BO'YICHA**

**O'QUV-USLUBIV MAJMUA**

**Toshkent – 2022**

Mazkur o‘quv-uslubiy majmua Oliy va o‘rta maxsus ta’lim vazirligining Modulning o‘quv-uslubiy majmuasi Oliy va o‘rta maxsus ta'lim vazirligining 2020 yil 7 dekabrda 648-sonli buyrug‘i bilan tasdiqlangan o‘quv dasturi va o‘quv rejasiga muvofiq ishlab chiqilgan

**Tuzuvchi:** dots. Urakov D.J.

**Taqrizchilar:** tarix fanlari nomzodi, dotsent O.A.Maxmudov,  
tarix fanlari nomzodi, dotsent A.G.Xolliyev.

**O‘quv -uslubiy majmua Bosh ilmiy-metodik markaz Ilmiy metodik  
Kengashining qarori bilan nashrga tavsiya qilingan  
(2020 yil “30” dekabrda 5/4-sonli bayonnoma)**

## MUNDARIJA

I. ISHCHI DASTUR .....	4
II. MODULNI O‘QITISHDA FOYDALANILADIGAN INTREFAOL TA‘LIM METODLARI .....	14
III. NAZARIY MASHG‘ULOT MATERIALLARI .....	17
IV. AMALIY MASHG‘ULOT MATERIALLARI .....	46
V. KEYSLAR BANKI.....	51
VI. MUSTAQIL TA‘LIM MAVZULARI.....	54
VII. GLOSSARIY .....	55
VIII. ADABIYOTLAR RO‘YXATI.....	57

# I. ISHCHI DASTUR

## Kirish

Dastur O‘zbekiston Respublikasining 2020 yil 23 sentabrda tasdiqlangan “Ta’lim to‘g‘risida”gi Qonuni, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 30-iyundagi “O‘zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi huzurida O‘zbekistonning eng yangi tarixi bo‘yicha Jamoatchilik kengashi faoliyatini tashkil etish to‘g‘risida”gi PQ-3105-sonli Qarori, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 7 fevraldagi “O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha Harakatlar strategiyasi to‘g‘risida”gi PF-4947-son, 2019 yil 27 avgustdagi “Oliy ta’lim muassasalari rahbar va pedagog kadrlarining uzluksiz malakasini oshirish tizimini joriy etish to‘g‘risida”gi PF-5789-son, 2019 yil 8 oktabrdagi “O‘zbekiston Respublikasi oliy ta’lim tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi PF-5847-sonli Farmonlari hamda O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2019 yil 23 sentabrdagi “Oliy ta’lim muassasalari rahbar va pedagog kadrlarining malakasini oshirish tizimini yanada takomillashtirish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi 797-sonli Qarorida belgilangan ustuvor vazifalar mazmunidan kelib chiqqan holda tuzilgan bo‘lib, u oliy ta’lim muassasalari pedagog kadrlarining kasb mahorati hamda innovatsion kompetentligini rivojlantirish, sohaga oid ilg‘or xorijiy tajribalar, yangi bilim va malakalarni o‘zlashtirish, shuningdek amaliyotga joriy etish ko‘nikmalarini takomillashtirishni maqsad qiladi.

Dastur doirasida berilayotgan mavzular ta’lim sohasi bo‘yicha pedagog kadrlarni qayta tayyorlash va malakasini oshirish mazmuni, sifati va ularning tayyorgarligiga qo‘yiladigan umumiy malaka talablari va o‘quv rejalari asosida shakllantirilgan bo‘lib, uning mazmuni Kredit modul tizimi va o‘quv jarayonini tashkil etish, ilmiy va innovatsion faoliyatni rivojlantirish, ta’lim jarayoniga raqamli texnologiyalarni joriy etish, maxsus maqsadlarga yo‘naltirilgan ingliz tili, mutaxassislik fanlar negizida ilmiy va amaliy tadqiqotlar, o‘quv jarayonini tashkil etishning zamonaviy uslublari bo‘yicha so‘nggi yutuqlar, pedagogning kreativ kompetentligini rivojlantirish, ta’lim jarayonlarini raqamli texnologiyalar asosida individuallashtirish, masofaviy ta’lim xizmatlarini rivojlantirish, vebinar, onlayn, «blended learning», «flipped classroom» texnologiyalarini amaliyotga keng qo‘llash bo‘yicha tegishli bilim, ko‘nikma, malaka va kompetensiyalarni rivojlantirishga yo‘naltirilgan.

Qayta tayyorlash va malaka oshirish yo‘nalishining o‘ziga xos xususiyatlari hamda dolzarb masalalaridan kelib chiqqan holda dasturda tinglovchilarning

mutaxassislik fanlar doirasidagi bilim, ko'nikma, malaka hamda kompetensiyalariga qo'yiladigan talablar takomillashtirilishi mumkin.

### **Modulning maqsadi va vazifalari**

**Modulning maqsadi:** Modulning asosiy maqsadi eng qadimgi sivilizatsiyalarning vujudga kelgan davrdan boshlab hozirgacha mavjud sivilizatsiyalarni shakllanish jarayoni, jamiyatning rivojlanishiga sivilizatsiyalarning qo'shgan hissasi va ahamiyatini chuqur tahlil qilishdan iborat. Jahon sivilizatsiyalari tarixini o'qitish orqasidan tinglovchilarga sivilizatsiyalarning rivojlanish haqidagi tasavvurlar uyg'otiladi Sivilizatsiyalarning insoniyat tarixining ajralmas qismi ekanligi, qadimgi sivilizatsiya markazlari va ularning jamiyat hayotida tutgan o'rni ochib beriladi.

#### **Modulning vazifalari:**

- Qadimgi dunyodagi madaniy taraqqiyot haqida tushunchalarni yoritish, "Sivilizatsiya" atamasining XVIII-XIX asrda Yevropa ilmiga kirib borishini o'rganish;

-Pedagoglarning Jahon sivilizatsiyasi tarixining dolzarb muammolarini yoritishda ijodiy-innovatsion faollik darajasini oshirish;

- Jahon sivilizatsiyasi tarixining dolzarb muammolari fanlarini o'qitish jarayoniga zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalari samarasini tatbiq etilishini ta'minlash;

- Antik meros va xristianlik-Yevropa sivilizatsiyasining fundamental asoslari. Sivilizatsiyaga qarshi "Varvarlik". Rim va varvarlik dunyosini qorishma jarayoni o'rgatib, mutaxassislik fanlar sohasidagi o'qitishning ilg'or xorijiy tajribalarini o'zlashtirish;

- Jahon sivilizatsiyasi tarixining dolzarb muammolari bo'yicha egallagan bilimlarini tahlil qilish, sivilizatsiyalar rivojida erishilgan yutuqlar, yo'l qo'yilgan xato va kamchiliklarni tahlil qila olishini o'zlashtirish;

### **Modul bo'yicha tinglovchilarning bilimi, ko'nikmasi, malakasi va kompetensiyalariga qo'yiladigan talablar**

Modulni o'zlashtirish jarayonida amalga oshiriladigan masalalar doirasida:

#### **Tinglovchi:**

- Jahon sivilizatsiyasining mukammal, rivojlanib borish jarayonlari, Yevropa Sharq olimlari, faylasuflarning tarixiy nazariyalarini mukammal o‘rganish sohasidagi yutuklar va istiqbollari kabi masalalarni **bilishi** kerak.

- Modul bo‘yicha egallagan bilimlarini tahlil qilish; sivilizatsiya sohasida jahon hamjamiyati tomonidan to‘plangan tarixiy tajribani ilmiy va pedagogik amaliyotda samarali qo‘llash malakalariga ega bo‘lishi, pedagogik jarayonda muloqot uslublarini to‘g‘ri qo‘llay olish **ko‘nikmalariga** ega bo‘lishi lozim.

- tarixiy tadqiqotlarda jahon xalqlarining sivilizatsion taraqqiyot davomida erishgan yutuqlarini ta‘lim jarayonida qo‘llashning ilmiy-nazariy va amaliy ahamiyatini bilish, “Jahon sivilizatsiyasi” fanidan taabalar har bir tarixiy davrda tarixiy tadqiqotlar ko‘lami, har bir davrning o‘z dolzarb muammosini tadqiqotlari va soha bo‘yicha zamonaviy usullarini qo‘llash **malakalariga** ega bo‘lishi lozim.

### **Modulni tashkil etish va o‘tkazish bo‘yicha tavsiyalar**

Modulni o‘qitish ma‘ruza va amaliy mashg‘ulotlar shaklida olib boriladi.

Modulni o‘qitish jarayonida ta‘limning zamonaviy metodlari, pedagogik texnologiyalar va axborot-kommunikatsiya texnologiyalari qo‘llanilishi nazarda tutilgan:

- ma‘ruza darslarida zamonaviy kompyuter texnologiyalari yordamida prezentatsion va elektron-didaktik texnologiyalardan;

- o‘tkaziladigan amaliy mashg‘ulotlarda texnik vositalardan, ekspress-so‘rovlar, test so‘rovlari, aqliy hujum, guruhli fikrlash, kichik guruhlar bilan ishlash, kollokvium o‘tkazish, va boshqa interaktiv ta‘lim usullarini qo‘llash nazarda tutiladi.

### **Modulning o‘quv rejadagi boshqa modullar bilan bog‘liqligi va uzviyligi**

“Jahon sivilizatsiyasi tarixining dolzarb muammolari” moduli mazmuni o‘quv rejadagi “Jahon mamlakatlarining fan va texnika taraqqiyoti tarixi”, “Tarix fanida davlatchilik masalalari: qadimgi, o‘rta asrlar, yangi va eng yangi davr” va “Zamonaviy geosiyosatning dolzarb muammoari” o‘quv modullari bilan uzviy bog‘langan holda pedagoglarning ta‘lim jarayonida bulutli hisoblash, katta ma‘lumotlar va virtual reallik tizimlaridan foydalanish bo‘yicha kasbiy pedagogik tayyorgarlik darajasini oshirishga xizmat qiladi.

### **Modulning oliy ta‘limdagi o‘rni**

Modulni o‘zlashtirish orqali tinglovchilar ta‘lim jarayonida Jahon sivilizatsiyasi tarixining dolzarb muammolariga oid ma‘lumotlarni o‘qitishda qo‘llay olishga doir kasbiy kompetentlikka ega bo‘ladilar.

## Modul bo'yicha soatlar taqsimoti

№	Modul mavzulari	Auditoriya uquv yuklamasi			
		Jami	jumladan		
			Nazariy	Amaliy mashg'ulot	Ko'chma mashg'uloti
1.	“Sivilizatsiya” terminining XVIII-XIX asrda Yevropa ilmiga kirib borishi.	2	2		
2.	Qadimgi Mesopotomiyaning aholisi. Shumer muammosi. Qadimgi Misr madaniyati. Misr girogliflari. Ilmiy bilimlar.	2	2		
3.	Miloddan avvalgi III-II ming yilliklarda Hindiston sivilizatsiyasi. Xitoy sivilizatsiyasi.	2	2		
4.	Qadimgi Yunoniston sivilizatsiyasida Krit-miken madaniyati. Axey madaniyati.	2	2		
5.	L.Morgan sistemasida sivilizatsiya.	4		4	
6.	Hindiston madaniyatining an'anaviyligi dolzarb jihatlari.	4		4	
7.	Rim sivilizatsiyasi qulashining sabablari.	2		2	
8.	Qadimgi davrda Rim jamiyati. Patritsiy va plebeylar. Rim fuqarolik jamiyati.	2		2	
	<b>Jami:</b>	<b>20</b>	<b>8</b>	<b>12</b>	

**UMUMIY 20 SOAT BERILGAN**

## NAZARIY MASHG‘ULOTLAR MAZMUNI

### **1-mavzu. “Sivilizatsiya” terminining XVIII-XIX asrda Yevropa ilmiga kirib borishi. (2 soat)**

- 1.1. Sivilizatsiya tushunchasi.
- 1.2. Sivilizatsiya tiplari va turlari.
- 1.3. Tarixga sivilizatsion yondashuv.

### **2-mavzu. Qadimgi Mesopotomiyaning aholisi. Shumer muammosi. Qadimgi Misr madaniyati. Misr girogliflari. Ilmiy bilimlar. (2 soat)**

- 2.1. Sivilizatsiya paydo bo‘lishi shart-sharoitlari.
- 2.2. Sivilizatsiyalar tizimida Misr.
- 2.3. Mesopotamiya sivilizatsiyasining o‘ziga xos xususiyatlari.

### **3-mavzu. Miloddan avvalgi III-II ming yilliklarda Hindiston sivilizatsiyasi. Xitoy sivilizatsiyasi. (2 soat)**

- 3.1. Qadimgi Xitoy va Hindiston sivilizatsiyasining o‘ziga xos xususiyatlari, paydo bo‘lishining shart-sharoitlari..
- 3.2. Xitoyda fan va madaniyat.
- 3.3. Davlat boshqaruvlari va e’tiqodlari.
- 3.4. Xitoy sivilizatsiyasining o‘ziga xos xususiyatlari.
- 3.5. Moxinjadaro va Xarappa madaniyatlari.
- 3.6. Hindistondagi din va e’tiqodlar rang-barangligi..

### **4-mavzu. Qadimgi Yunoniston sivilizatsiyasida Krit-miken madaniyati. Axy madaniyati. (2 soat)**

- 4.1. Qadimgi Krit va Miken jamiyati.
- 4.2. Ellada madaniyati.



#### 4.3. Ilmiy bilimlar va din rivoji.

### **AMALIY MASHG‘ULOTLAR MAZMUNI**

**1-amaliy mashg‘ulot.** L.Morgan sistemasida sivilizatsiya. (4 soat).

**2-amaliy mashg‘ulot.** Hindiston madaniyatining an’anaviyligi dolzarb jihatlari. (4 soat).

**3-amaliy mashg‘ulot.** Rim sivilizatsiyasi qulashining sabablari. (2 soat).

**4-amaliy mashg‘ulot.** Qadimgi davrda Rim jamiyati. Patriitsiy va plebeylar.  
Rim fuqarolik jamiyati. (2 soat).

### **O‘QITISH SHAKLLARI**

Mazkur modul bo‘yicha quyidagi o‘qitish shakllaridan foydalaniladi:

- ma’ruzalar, amaliy mashg‘ulotlar (ma’lumotlar va texnologiyalarni anglab olish, aqliy qiziqishni rivojlantirish, nazariy bilimlarni mustahkamlash);
- davra suhbatlari (ko‘rilayotgan loyiha yechimlari bo‘yicha taklif berish qobiliyatini oshirish, eshitish, idrok qilish va mantiqiy xulosalar chiqarish);
- bahs va munozaralar (loyihalar yechimi bo‘yicha dalillar va asosli argumentlarni taqdim qilish, eshitish va muammolar yechimini topish qobiliyatini rivojlantirish).

### **ADABIYOTLAR RO‘YXATI**

#### **I. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining asarlari**

1. Mirziyoyev SH.M. Buyuk kelajagimizni mard va olijanob xalqimiz bilan birga quramiz. – T.: “O‘zbekiston”, 2017. – 488 b.

2. Mirziyoyev SH.M. Milliy taraqqiyot yo‘limizni qat’iyat bilan davom ettirib, yangi bosqichga ko‘taramiz. 1-jild. – T.: “O‘zbekiston”, 2017. – 592 b.

3. Mirziyoyev SH.M. Xalqimizning roziligi bizning faoliyatimizga berilgan eng oliy bahodir. 2-jild. T.: “O‘zbekiston”, 2018. – 507 b.

4. Mirziyoyev SH.M. Niyati ulug‘ xalqning ishi ham ulug‘, hayoti yorug‘ va kelajagi farovon bo‘ladi. 3-jild.– T.: “O‘zbekiston”, 2019. – 400 b.

5. Mirziyoyev SH.M. Milliy tiklanishdan – milliy yuksalish sari. 4-jild.– T.: “O‘zbekiston”, 2020. – 400 b.

#### **II. Normativ-huquqiy hujjatlar**

6. O‘zbekiston Respublikasining Konstitusiyasi. – T.: O‘zbekiston, 2018.

7. O‘zbekiston Respublikasining 2020 yil 23 sentabrda qabul qilingan “Ta’lim to‘g‘risida”gi O‘RQ-637-sonli Qonuni.

8. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2015 yil 12 iyun “Oliy ta’lim muassasalarining rahbar va pedagog kadrlarini qayta tayyorlash va malakasini oshirish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PF-4732-sonli Farmoni.

9. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 7 fevral “O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha Harakatlar strategiyasi to‘g‘risida”gi 4947-sonli Farmoni.

10. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 20 aprel "Oliy ta’lim tizimini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-2909-sonli Qarori.

11. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018 yil 21 sentabr “2019-2021 yillarda O‘zbekiston Respublikasini innovatsion rivojlantirish strategiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi PF-5544-sonli Farmoni.

12. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 27 may “O‘zbekiston Respublikasida korrupsiyaga qarshi kurashish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PF-5729-son Farmoni.

13. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 17 iyun “2019-2023 yillarda Mirzo Ulug‘bek nomidagi O‘zbekiston Milliy universitetida talab yuqori bo‘lgan malakali kadrlar tayyorlash tizimini tubdan takomillashtirish va ilmiy salohiyatini rivojlantiri chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-4358-sonli Qarori.

14. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 27 avgust “Oliy ta’lim muassasalari rahbar va pedagog kadrlarining uzluksiz malakasini oshirish tizimini joriy etish to‘g‘risida”gi PF-5789-sonli Farmoni.

15. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 8 oktabr “O‘zbekiston Respublikasi oliy ta’lim tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi PF-5847-sonli Farmoni.

16. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020 yil 29 oktabr “Ilm-fanni 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi PF-6097-sonli Farmoni.

17. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning 2020 yil 25 yanvardagi Oliy Majlisga Murojaatnomasi.

18. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2019 yil 23 sentabr “Oliy ta’lim muassasalari rahbar va pedagog kadrlarining malakasini oshirish tizimini yanada takomillashtirish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi 797-sonli Qarori.

19. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2019 yil 21 sentabrdagi “Arxeologik tadqiqotlarni tubdan takomillashtirish to‘g‘risida”gi 792-sonli Qarori.

20. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020 yil 16 apreldagi “Sharqshunoslik sohasida kadrlar tayyorlash tizimini tubdan takomillashtirish va ilmiy salohiyatni oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-4680-sonli Qarori.

## **SH. Maxsus adabiyotlar**

21. Allison S. (Ed.). *History of Europe: Series A: Ancient*. – Oxford: Oxford University Press, 2020. – 871 p.
22. Allison S. (Ed.). *History of Europe: Series B: Middle ages*. – Oxford: Oxford University Press, 2020. – 1243 p.
23. Allison S. (Ed.). *History of Europe: Series S: New Era*. – Oxford: Oxford University Press, 2020. – 1243 p.
24. Avery P. *The Cambridge History of Iran*. – Cambridge: Cambridge University Press, 2020. – 871 p.
25. Bayly S. *The Cambridge History of India*. – Cambridge: Cambridge University Press, 2020. – 1093 p.
26. Bose S. *The New Cambridge History of Asia*. – Cambridge: Cambridge University Press, 2 part. 2020. – 2062 p.
27. Brundage A. *Going to the Sources: A Guide to Historical Research and Writing*. – Oxford: John Wiley & Sons, 2017.
28. Bunch B., Hellemans A. *The history of science and technology*. – Boston – New York, 2004.
29. Burton A. (Ed.). *History of the world from ancient to modern times: Europe*. – Cambridge: Harvard University Press, 2019. – 1487 p.
30. Burton A. (Ed.). *History of the world from ancient to modern times: Asia*. – Cambridge: Harvard University Press, 2019. – 1241 p.
31. Burton A. (Ed.). *History of the world from ancient to modern times: Africa*. – Cambridge: Harvard University Press, 2019. – 903 p.
32. Burton A. (Ed.). *History of the world from ancient to modern times: North and South America*. – Cambridge: Harvard University Press, 2019. – 1084 p.
33. Collins R. *The Arab Conquest of Spain, 710–797*. – Oxford: Blackwell Publishing, 2018.
34. David Spencer “Gateway”, Students book, Macmillan 2012.
35. Grant E. *A Source Book in Medieval Science*. – Cambridge: Harvard University Press, 2016. – 587 p. (Reprint).
36. H.Q. Mitchell “Traveller” B1, B2, MM Publications. 2015. 183.
37. H.Q. Mitchell, Marileni Malkogianni “PIONEER”, B1, B2, MM Publications. 2015. 191.
38. Haskins C. H. *Studies in the History of Mediaeval Science*. – New York: Frederick Ungar Publishing, 2019. (Reprint).
39. Haskins C. H. *The Renaissance of the Twelfth Century*. – Cambridge: Harvard University Press, 2018. (Reprint).
40. Huntington S.P. *The Clash of Civilizations and the Remaking of World Order*. – New York: Simon and Schuster, 2017. – 358 p.
41. Mahmudov O. *The beginning of the European renaissance // International Journal of Research and Development*. 2020. – Vol. 5 (7). Pp. 104-108. DOI: <https://doi.org/10.36713/epra4787>
42. Makhmudov O.V. *The Toledo School – early center of investigation of the works Central Asian scholars in the Europe*. – Saarbrücken: Lambert Academic Publishing, 2017. – p. 193.

43. Roberts J.M., Westad O.A. The History of the World. – Oxford: Oxford University Press, 2020. – 1260 p.
44. Sarton G. Introduction to the History of Science. – Vol. 1. From Homer to Omar Khayyam. – Oxford: John Wiley & Sons, 2019. (Reprint).
45. Sarton G. Introduction to the History of Science. – Vol. 2. From Rabbi ben Ezra to Roger Bacon, Parts I-II. – Baltimore: Carnegie Institution of Washington, 2020. (Reprint).
46. Starr F. Lost Enlightenment: Central Asia's Golden Age from the Arab Conquest to Tamerlane. – Princeton: Princeton University Press, 2015.
47. Thorndike L. A. History of magic and experimental Science. – New York: Columbia University Press, 2019. – 835 p. (Reprint).
48. Watt W. M. The influence of Islam on medieval Europe. (Islamic Surveys 9). – Edinburgh: Edinburgh University Press, 2020. (Reprint).
49. Aydin Arif ogli A. Xroniki musulmanskiX gosudarstv I – VII vekov xidjri. – Moskva: Umma, 2018. – 448 s.
50. Alimova D.A. Istoriya kak istoriya, istoriya kak nauka. T. I. Istoriya i istoricheskoye soznaniye. – T.: Uzbekiston, 2008.
51. Belogurov A.Y. Modernizatsiya protsessa podgotovki pedagoga v kontekste innovatsionnogo razvitiya obshestva: Monografiya. — M.: MAKS Press, 2016. — 116 s. ISBN 978-5-317-05412-0.
52. Bolshakov O. G. Istoriya Xalifata. – T. 4. Apogey i padeniye arabskogo Xalifata. – Moskva: Vostochnaya literatura, 2018. – 368 s.
53. Gabrielyan S. I. Istoriya stran Azii i Afriki v novoye vremya. – Tashkent, 2012.
54. Gulobod Quadratulloh qizi, R.Ishmuhamedov, M.Normuhammedova. An'anaviy va noan'anaviy ta'lim. – Samarqand: "Imom Buxoriy xalqaro ilmiy-tadqiqot markazi" nashriyoti, 2019. 312 b.
55. Yevropa mamlakalari va AQSH 1640–1918 yillarda. / A.Xolliyev tahriri ostida. – Toshkent: Universitet, 2010.
56. Ibraymov A.YE. Masofaviy o'qitishning didaktik tizimi. metodik qo'llanma/ tuzuvchi. A.YE. Ibraymov. – Toshkent: "Lesson press", 2020. 112 bet.
57. Istoriya noveyshego vremeni stran Yevropi i Ameriki v 1918 – 1945 gg. / pod red. N.A.Rodrigues. – Moskva, 2014.
58. Istoriya noveyshego vremeni stran Yevropi i Ameriki v 1945 – 2000 gg. / pod red. YE.Yazikova. – Moskva: Nauka, 2015.
59. Istoriya noveyshego vremeni stran Yevropi i Ameriki v 1945 – 2000 gg. II chast / pod red. N.A.Rodrigues. – Moskva: Nauka, 2014.
60. Istoriya srednix vekov. / pod red. S.P.Karpova. – 1-2 ch. – Moskva: MGU, 2018.
61. Ishmuhamedov R.J., M.Mirsoliyeva. O'quv jarayonida innovatsion ta'lim texnologiyalari. – T.: «Fan va texnologiya», 2014. 60 b.
62. Yeger O. Vsemirnoy istorii. Tom 1. Drevniy mir. – M.: Directmedia, 2020. – 1044 s.

63. Yeger O. Vsemirnoy istorii. Tom 2. Sredniye veka. – M.: Directmedia, 2020. – 905 s.
64. Yeger O. Vsemirnoy istorii. Tom 3. Novaya istoriya. – M.: Directmedia, 2020. – 809 s.
65. Yeger O. Vsemirnoy istorii. Tom 4. Noveyshaya istoriya. – M.: Directmedia, 2020. – 878 s.
66. Kazakova V.N. Istoriya srednix vekov. – Moskva: Litres, 2018.
67. Luchenkova YE., Myadel A. Istoriya nauki i texniki. – M.: Litres, 2017. – 431 s.
68. Mommzen T. Istoriya Rima. – M.: Litres, 2020. – 591 s.
69. Muslimov N.A va boshqalar. Innovatsion ta'lim texnologiyalari. O'quv-metodik qo'llanma. – T.: "Sano-standart", 2015. – 208 b.
70. Nemirovskiy A., Nikishin V., Ladinin I., Novikov S. Istoriya drevnego mira. Vostok, Gretsiya, Rim. – M.: Litres, 2020. – 786 s.
71. Problemi istorii i mejdissiplinarnogo sinteza. – M.: Litres, 2019. – 561 s.
72. Rtveladze E.V. Istoriya gosudarstvennosti Uzbekistana. – Toshkent: Uzbekistan, 2009.
73. Rusina Y.A. Metodologiya istochnikovedeniya. – Yekaterinburg, 2015.
74. Usmonov B.SH., Habibullayev R.A. Oliy o'quv yurtlarida o'quv jarayonini kredit-modul tizimida tashkil qilish.–T.: "TKTI" nashriyoti, 2019.
75. Xannikov A. Texnika: ot drevnosti do nashix dney. – M.: Litres, 2020. – 384 s.
76. Sheypak A. Istoriya nauki i texniki. – M.: Litres, 2020. – 513 s.

#### **IV. Internet saytlar**

77. O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi: [www.edu.uz](http://www.edu.uz).
78. Bosh ilmiy-metodik markaz: [www.bimm.uz](http://www.bimm.uz)
79. [www.Ziyonet.Uz](http://www.Ziyonet.Uz)
80. Otkritoye obrazovaniye. <https://openedu.ru/>
81. <https://www.ucl.ac.uk/ioe/courses/graduate-taught/mathematics-education-ma>
82. <https://www.onlinestudies.com/Courses/Mathematics/Europe/>
83. <https://online-learning.harvard.edu/catalog?keywords=mathematics&op=Search>
84. <https://www.msu.ru/en/projects/proekt-vernadskiy/news/math-teachers-advanced-training.html>
85. <https://english.spbu.ru/education/graduate/master-in-english/90-program-master/2455-advanced-mathematics>

## II. MODULNI O‘QITISHDA FOYDALANILADIGAN INTREFAOL TA’LIM METODLARI

### Davra stolining tuzilmasi

Yozma davra suhbatida stol-stullar aylana shaklida joylashtirilib, har bir ta’lim oluvchiga konvert qog‘ozi beriladi. Har bir ta’lim oluvchi konvert ustiga ma’lum bir mavzu bo‘yicha o‘z savolini beradi va “Javob varaqasi”ning biriga o‘z javobini yozib, konvert ichiga solib qo‘yadi. Shundan so‘ng konvertni soat yo‘nalishi bo‘yicha yonidagi ta’lim oluvchiga uzatadi. Konvertni olgan ta’lim oluvchi o‘z javobini “Javoblar varaqasi”ning biriga yozib, konvert ichiga solib qo‘yadi va yonidagi ta’lim oluvchiga uzatadi. Barcha konvertlar aylana bo‘ylab harakatlanadi. Yakuniy qismda barcha konvertlar yig‘ib olinib, tahlil qilinadi. Quyida “Davra suhbat” metodining tuzilmasi keltirilgan



### Xulosalash (Rezyume, Veyer) metodi

**Metodning maqsadi:** Bu metod murakkab, ko'ptarmoqli, mumkin qadar, muammoli xarakteridagi mavzularni o'rganishga qaratilgan. Metodning mohiyati shundan iboratki, bunda mavzuning turli tarmoqlari bo'yicha bir xil axborot beriladi va ayni paytda, ularning har biri alohida aspektlarda muhokama etiladi. Masalan, muammo ijobiy va salbiy tomonlari, afzallik, fazilat va kamchiliklari, foyda va zararlari bo'yicha o'rganiladi. Bu interfaol metod tanqidiy, tahliliy, aniq mantiqiy fikrlashni muvaffaqiyatli rivojlantirishga hamda o'quvchilarning mustaqil g'oyalari, fikrlarini yozma va og'zaki shaklda tizimli bayon etish, himoya qilishga imkoniyat yaratadi. "Xulosalash" metodidan ma'ruza mashg'ulotlarida individual va juftliklardagi ish shaklida, amaliy va seminar mashg'ulotlarida kichik guruhlardagi ish shaklida mavzu yuzasidan bilimlarni mustahkamlash, tahlili qilish va taqqoslash maqsadida foydalanish mumkin.

### Методни амалга ошириш тартиби:



тренер-ўқитувчи иштирокчиларни 5-6 кишидан иборат кичик гуруҳларга ажратади;



тренинг мақсади, шартлари ва тартиби билан иштирокчиларни таништиргач, ҳар бир гуруҳга умумий муаммони таҳлил қилиниши зарур бўлган қисмлари туширилган тарқатма материалларни



ҳар бир гуруҳ ўзига берилган муаммони атрофлича таҳлил қилиб, ўз мулоҳазаларини тавсия этилаётган схема бўйича тарқатмага ёзма баён қилади;



навбатдаги босқичда барча гуруҳлар ўз тақдимотларини ўтказадилар. Шундан сўнг, тренер томонидан таҳлиллар умумлаштирилади, зарурий ахборотлар билан тўлдирилади ва мавзу

### «FSMU» metodi

**Texnologiyaning maqsadi:** Mazkur texnologiya ishtirokchilardagi umumiy fikrlardan xususiy xulosalar chiqarish, taqqoslash, qiyoslash orqali axborotni o'zlashtirish, xulosalash, shuningdek, mustaqil ijodiy fikrlash ko'nikmalarini shakllantirishga xizmat qiladi. Mazkur texnologiyadan ma'ruza mashg'ulotlarida, mustahkamlashda, o'tilgan mavzuni so'rashda, uyga vazifa berishda hamda amaliy mashg'ulot natijalarini tahlil etishda foydalanish tavsiya etiladi.

**Texnologiyani amalga oshirish tartibi:**

- qatnashchilarga mavzuga oid bo‘lgan yakuniy xulosa yoki g‘oya taklif etiladi;
- har bir ishtirokchiga FSMU texnologiyasining bosqichlari yozilgan qog‘ozlarni tarqatiladi:



- ishtirokchilarning munosabatlari individual yoki guruhiy tartibda taqdimot qilinadi.

FSMU tahlili qatnashchilarda kasbiy-nazariy bilimlarni amaliy mashqlar va mavjud tajribalar asosida tezroq va muvaffaqiyatli o‘zlashtirilishiga asos bo‘ladi.

**Namuna.**

**Fikr: “Jahon sivilizatsiyasi tarixining o‘rganish muammolari qanday natija beradi?”.**

**Topshiriq:** Mazkur fikrga nisbatan munosabatingizni FSMU orqali tahlil qiling.



### III. NAZARIY MASHG‘ULOT MATERIALLARI

**1-мавзу: “Цивилизация” терминининг XVIII-XIX асрда Европа илмига кириб бориши.**

#### **РЕЖА:**

1. *Sivilizatsiya tushunchasi.*
2. *Sivilizatsiya tiplari va turlari.*
3. *Tarixga sivilizatsion yondashuv.*
4. *Sivilizatsiya paydo bo‘lishining shart-sharoitlari. Rim sivilizatsiyasining davomchisi.*
5. *O‘rta asrlardagi Vizantiya madaniyati. Rossiya sivilizatsiyasining o‘ziga xosligi.*
6. *O‘rta asrlar G‘arb mafkurasi. Industrial jamiyat.*
7. *G‘arbda gumanizm.*

**Tayanch iboralar:** *Qadimgi dunyodagi madaniy taraqqiyot haqida tushuncha “Sivilizatsiya” terminining XVIII-XIX asrda Yevropa ilmiga kirib borishi. L.Morgan sistemasida sivilizatsiya. Hozirgi zamon fanida “sivilizatsiya” tushunchasi. M.Veber, O. Shpengler, A.Toynbi, F.Brodel, K. Yaspers, P.Sorokin, S.Xantington nazariyalari. Sivilizatsiyaning bosqichli nazariyalari. Inson jamiyati taraqqiyoti muammosiga sintetik yondashuv yo‘llarini izlash. Sivilizatsiya va madaniyat tushunchasi tahlili. Sivilizatsiyalar o‘rtasidagi yagona madaniyat dolzarb masalalari, o‘ziga xoslik, xilma-xillikning o‘zaro bog‘liqligi. Antik meros va xristianlik-Yevropa sivilizatsiyasining fundamental asoslari. Sivilizatsiyaga qarshi “Varvarlik”. Rim va varvarlik dunyosini qorishma jarayoni. O‘rta asrlar Yevropasini birligi va xilma-xilligi. Yerdagi shahar va xudo shahri: davlat va cherkov dolzarb jihatlari O‘rta asrning tugashi. Yevropa va dunyo: okean sivilizatsiyasining tug‘ilishi. Buyuk geografik kashfiyotlar. Kapitalizm manbalari. Kapitalizm shaharda va qishloqda. Absolyutizm. Uyg‘onish davri va reformatsiya: shaxsning yangi tipi. Uyg‘onish davri: shaxsiyatparastlik g‘alabasi muammolari. Reformatsiya: shaxsiyatparastlik chegarasi. Sanoatlantirish davrida g‘arb madaniyati muammolari. Texnotron jamiyat. Informatsion jamiyat. Ommaviy madaniyat.*

#### **1.1. Sivilizatsiya tushunchasi.**

Sivilizatsiya so‘zi lotincha “sivil” -fuqarolikka, davlatga, shaharga taalluqli

маъноларини англашувчи ўзакдан келиб чиққан. Бу сўз турли маъноларда қўлланлади. Кенг ма'нода - ongli mavjudotlar mavjudligining har qanday shakli. Sivilizatsiya madaniyat so'zining sinonimi sifatida, ko'pincha moddiy madaniyat ma'nosida ham qo'llaniladi. Sivilizatsiyaning yana bir ma'nosi madaniyatning zamon va makonda chegaralangan tarixiy tipi (Misr sivilizatsiyasi, Mesopotamiya sivilizatsiyasi va b.). Sivilizatsiya fanda yovvoyilik va vahshiylikdan keyingi ijtimoiy taraqqiyot bosqichi sifatida ta'riflanadi.

Ushbu kategoriyaning serqirraligi va ko'p serma'noligi tufayli unga aniq ta'rif berish mushkul. "Sivilizatsiya" ning yuzdan ortiq ta'riflari mavjud. Sivilizatsiya tushunchasi «madaniyat» tushunchasi bilan uzviy bog'liq ravishda paydo bo'lgan. Fransuz faylasuf ma'rifatparvarlari aql va adolatga asoslangan jamiyatni sivilizatsiyalashgan jamiyat deb bilganlar. Ko'pchilik faylasuflar «sivilizatsiya» deganda jamiyatning moddiy-texnika yutuqlarini, «madaniyat» deganda esa faqat uning ma'naviy qadriyatlarini tushunishgan.

XVIII asrdan «sivilizatsiya» tushunchasi tarixchilar lug'atidan mustahkam o'rin oldi, shu davrdan sivilizatsiyaning turli nazariyalari shakllana boshladi. Ushbu jarayon bugungi kunda ham davom etmoqda. Quyida biz ayrim nazariyalar bilan tanishib o'tamiz.

Dastlab XVIII asrda A. Fergusson ibtidoiy jamiyat tarixini davrlashtirish mezoni sifatida «madaniyatning o'zlashtirish darajasini» ilgari surdi: yovvoyilik, varvarlik, sivilizatsiya. Keyinchalik shved olimi S.Nilson bu davrlashtirishni bir oz to'g'irladi va to'ldirdi: yovvoyilik, nomadizm (yunon. nomados – ko'chib yuruvchi, ko'chmanchilik), dehqonchilik va sivilizatsiya.

1877 yilda amerikalik tarixchi va etnograf Lyuis Morgan (1818-1881 yy) o'zining «Qadimgi jamiyat» kitobida sivilizatsiya atamasini yagona madaniy-tarixiy jarayonning ma'lum darajasini belgilash uchun qo'llashni taklif etdi. Morgan sistemasida ham ibtidoiy jamiyat taraqqiyoti yovvoyilik, varvarlik va sivilizatsiya bosqichlaridan iborat, ammo u yovvoyilik va varvarlik davrlarining har birini, xo'jalik va moddiy madaniyat taraqqiyotining belgilariga ko'ra quyi, o'rta va yuqori bosqichlarga bo'ladi. Ushbu davrlashtirishda ishlab chiqarish kuchlari rivojining darajasi mezon bo'lib xizmat qiladi.

Tarixni o'rganishga sivilizatsion yondashuv asoschilaridan biri tabiatshunos olim Nikolay Danilevskiy (1822-1885) bo'lgan. U har biri alohida-alohida mavjud bo'lgan, faoliyatning to'rt muhim shakli yoki sivilizatsiyalar «asosi» - diniy, madaniy, siyosiy, ijtimoiy-iqtisodiy asoslar orqali namoyon bo'luvchi madaniy-tarixiy tiplar (sivilizatsiyalar) haqidagi konseptsyani ilgari surgan. Madaniy-tarixiy tiplar, biologik organizmlar kabi, tashqi muhit va bir-biri bilan uzluksiz kurash jarayonida bo'ladi va vujudga kelish, voyaga yetish, qarish va halok bo'lish bosqichlaridan o'tadi.

Ingliz tarixchisi va sotsiologi A. Toynbi (1889-1975 yy) sivilizatsiyani yaxlit ijtimoiy tizim sifatida ifodalagan. U o'zining o'n ikki tomlik "Tarixni anglash" asarida keltirgan o'zaro o'rin almashuvchi lokal sivilizatsiyalar konseptsiyasida sivilizatsion taraqqiyotning asosiy harakatlantiruvchi kuchi sifatida chaqiriq va javob nazariyasini ilgari surdi. U 32 ta sivilizatsini sanab o'tib, tarixiy jarayonning to'g'ri

chiziq bo‘ylab rivojlanishi haqidagi qarashlarga qarshi chiqdi va sivilizatsiyaning bosqichli-siklik rivojlanishini ta’kidladi.

Shuni ham ta’kidlash kerakki, sivilizatsiya atamasi ikki asrlarcha oldin fransuz ma’rifatparvarlari tomonidan mustaqillik, haqiqat, huquqiy tizim hukmronlik qiladigan fuqarolik jamiyatini ta’riflash uchun ishlatilgan. Lekin ko‘p o‘tmay amerikalik astrolog L. Morgan va undan keyin engels "Sivilizatsiya" atamasini kishilik jamiyatini rivojlantirishni ta’riflashda, ya’ni varvarlikdan – yovvoyilikdan jamiyatni tartibga tushishi, sinflarning paydo bulishi, xususiy mulk paydo bulishida ochishga harakat kilishdi.

O. Shpengler sivilizatsiya deganda madaniy, tarixiy jarayonning tugashi, uning chirishini ko‘zda tutgan va bu termini salbiy ma’noda ishlatgan.

A. Toynbi mintaqaviy sivilizatsiyalarga evolyusion jarayon sifatida qaragan. U "A Study of History" (1934-1961r) asarida quyidagilarni tirik sivilizatsiya deb atadi:

- 1) G‘arb jamiyati G‘arb xristanligi bilan birgalikda;
- 2) Janubiy Sharqiy Yevropa va Rossiyada pravoslav xristiani yoki Vizantiya jamiyatining joylashishi;
- 3) Shimoliy Afrika va O‘rta Sharqdan Buyuk Xitoy devorigacha islom jamiyati;
- 4) Xindistonda hindulik jamiyati;
- 5) Janubiy Sharq Osiyosida Uzoq Sharq jamiyati.

Amerikalik professor S. Xantington sivilizatsiya atamasini "rivojlangan" ma’nosida tushunadi. 1993 yilning yozida "Forsh affeyrz" jurnalida professor S. Xantingtonning "Sivilizatsiyalar to‘qnashuvi" deb nomlangan maqolasini chop qildi. Shu nom bilan 1997 yilda Amerikada kitob ham chop qilindi. Bularda aytilishicha, keyingi urush sivilizatsiyalar urushi bo‘ladi va bu urush o‘z-o‘zini yo‘q qiluvchilar urushi bo‘ladi, deydi.

Ayrim faylasuflar madaniyat va sivilizatsiya tushunchalarini bir-biriga qarama-qarshi qo‘yganlar. Chunonchi, nemis faylasufi va tarixchisi O. Shpengler (1880-1936 yy) ning fikricha, «sivilizatsiya» har qanday madaniyat taraqqiyotining muayyan tugal bosqichini bildiradi. Sivilizatsiyani bunday davr tanazzuli sifatida tushunish madaniyatning bir butunligi va tabiiyligiga ziddir. Shpengler ijtimoiy taraqqiyotning bir chizikli yevropotsentristik sxemasiga tanqidiy yondashgan. U insoniyat tarixida sakkiz madaniyat: Misr, Hind, Bobil, Xitoy, Yunon-rim, Sharq, G‘arbiy Yevropa va Mayya madaniyatlarini farqlagan. Shpengler fikriga ko‘ra, har bir madaniy organizm ma’lum hayot muddati (taxminan ming yil) mobaynida mavjud bo‘ladi, shundan so‘ng u sivilizatsiyaga aylanadi va halok bo‘ladi. Har bir madaniyat o‘z teran mazmuniga ega bo‘ladi va tarixiy jarayonda bir xil ahamiyat kasb etadi.

Fransuz tarixchisi F. Brodel (1886-1944 yy.) jahon taraqqiyoti muammosiga o‘zgacha yondashgan. O‘tmish hodisalarini tushuntirishda Brodel va bir qator boshqa fransuz tarixchilari tarixiy qonuniyatlar yoki tasodifiylikka birinchi darajali e’tibor qaratmasdan, birinchi o‘ringa “muhit” (tarixiy vaqt) omilini qo‘yishgan. Ularni birinchi navbatda xalqlarning hayoti, turmushi va mentaliteti qiziqtirgan.

Nemis faylasufi K.Yaspers (1883-1969 yy.) o‘zining “Tarix manbalari va uning maqsadi” asarida sivilizatsion taraqqiyotning bosqichma-bosqich rivojlanishi

konseptsiyasini ilgari surdi: tarixgacha bo'lgan davr, qadimgi davr madaniyati, vaqt o'qi (jahon tarixining boshlanishi), texnik davr (yagona jahon tarixiga o'tish).

Sotsiolog P.Sorokin (1889-1968 yy.) insoniyat madaniyatining butunjahon-tarixiy taraqqiyoti nazariyasini yaratdi. U bu taraqqiyotni ulkan madaniy supertizimlar doirasida ko'rib chiqdi.

Olimlarning fikricha sivilizatsiyaning mohiyatini, uning o'ziga xosligini turli omillar belgilaydi: tabiiy muhit, xo'jalik yuritish tizimi, siyosiy tuzim, jamiyatning ijtimoiy tashkiloti, din (yoki din darajasiga chiqarilgan mafkura), ma'naviy qadriyatlar, mentalitet. Ularning nuqtai nazaridan, insoniyat taraqqiyoti sivilizatsiyalarning bir-biri bilan o'rin almashashishi shaklida boradi, ularning har biri o'z madaniy-tarixiy an'analari, ahloq normalari, diniy tizimlarini ishlab chiqadi.

## 1.2 Sivilizatsiya tiplari va turlari.

Sivilizatsiyaning hal qiluvchi belgisi inson va jamiyatning moddiy-ma'naviy va badiiy sohalaridagi o'zgartiruvchanlik faoliyatidir.

Sivilizatsiya tushunchasi aksariyat hollarda inson o'zgartiruvchilik faoliyatining yakunlarini o'zida aks ettiradi.

Hozirgi davrda ba'zi manbalarda sivilizatsiyaning ijtimoiy-iktisodiy formatsiyalar tushunchalariga o'zaro qarama-qarshi qo'yish hollari uchraydi. Aslida bu tushunchalarni o'z o'rnida ishlatish lozim.

Kishilik jamiyati rivojlanishini anglatadigan ijtimoiy-iktisodiy formatsiyani sivilizatsiya bilan tenglashtirish ham, unga qarama-qarshi qo'yish ham to'g'ri kelmaydi.

Sivilizatsiya – lotin tilida fuqarolikka, davlatga taalluqli degan ma'noni anglatadi.

Kadimgi Rimning so'nggi davrlarida "Madaniyat" tushunchasi ijtimoiy hayotning shahar turmush tarzini ifodalovchi mazmunlar bilan boyigan. O'rta asrlarga kelib keng tarqalgan.

O'rta asr madaniyatining O'rta Osiyolik namoyandalari – Farobiy, Ibn Sino, Beruniylar shahar turmush tarzini jamiyatning yetuklik shakli sifatida talqin qilganlar.

Masalan, Farobiyning fikricha, "har bir inson tabiatiga ko'ra, oliy darajadagi yetuklikka erishish uchun intiladi". Bunday yetuklikka faqat shahar jamoasi orqali erishiladi.

Uning ta'kidlashicha, madaniy jamiyat va madaniy shahar shunday bo'ladiki, unda har bir odam kasb-hunardan ozod, hamma barobar, kishilar o'rtasida farq bo'lmaydi. Kishilar chin ma'noda ozod yashaydilar. Keyinchalik sivilizatsiya moddiy madaniyat tushunchasini anglata boshladi yoki varvarlikdan keyingi taraqqiyot bosqichini ifodaladi.

Umuman, sivilizatsiya tushunchasi XVII asrda madaniyat tushunchasi bilan bog'liq xolda vujudga keladi. Shu asrda yashagan fransuz ma'rifatparvar faylasuflari Volter, P. Tyurgo, J. A. Konderse aql va adolatga asoslangan tizimni sivilizatsiyali jamiyat deb bilganlar. Ma'rifatparvarlik davrida sivilizatsiyaning "tanqidi" vujudga

kelgan. J. Russo bunda "madaniy" millatlarning buzilganligi va ahloqiy tubanlashganligiga taraqqiyotning patriarxal bosqichida bo'lgan halqlar ahloqining soddaligi va sofligini qarshi qo'yadi.

Nemis klassik falsafasining namayondalari ana shu tanqidiy munosabatdan kelib chiqib, burjua sivilizatsiyasining ziddiyatlariga barham berishning umumnazariy yo'llarini izladilar.

Ular ziddiyatli holatdan chiqishning yo'lini "ruh" doirasidan axtardilar. I. Kant – ahloqiy, F. Shiller – estetik, G. Gegel filosofik ong doirasidan izladilar.

XIX asrda sivilizatsiya tushunchasiga kapitalizmning yaxlit tavsifi sifatida qaraldi. Lekin bunday tasavvur hukmron tushuncha emas edi.

O. Shpenglarning "Mahalliy sivilizatsiya" ta'limotiga ko'ra, sivilizatsiya har qanday madaniyat taraqqiyotining muayyan tugal bosqichidir. Industriya va texnika taraqqiyoti, san'at va adabiyotning inqirozga uchrashi, aholining yirik shaharlarga to'planishi, xalqlarning o'z kiyofasini yo'qotib, to'daga aylanib borishi uning asosiy belgilaridir.

Bu nazariya sivilizatsiyani muayyan jamiyat taraqqiyotining so'nggi bosqichi sifatida olib qarab, uni madaniyatga qarshi ko'ydi.

Bunday xato tasavvurlar Rossiyada N. YE. Danilevskiy, P. A. Sorokin, Buyuk Britaniyada A. Toynbi tomonidan rivojlantirildi. Bu va boshqa idealistik ta'limotlar haqiqatga zid bo'lib, sivilizatsiyaning tabiatini, uning harakatlantiruvchi kuchlarini ochib bera olmaydi.

Umuman olganda, jamiyat rivojining har bir bosqichi progressivdir. Ammo ayrim o'zgarishlar jamiyatdagi umuminsoniy qadriyatlarni ro'yobga chiqarishga javob bera olmasligi mumkin.

### **1.3 Tarixga sivilizatsion yondashuv.**

Sivilizatsiyaning asl ma'nosi taraqqiyot demakdir. YA'ni, sivilizatsiya – eng yuksak tartibdagi madaniy mushtaraklik, kishilar madaniy qiyofasining keng ko'lamli darajasi.

Mutaxassislarning hisob-kitoblariga ko'ra, insoniyat tarixida 20 dan ortiq sivilizatsiya va undan ko'proq subsivilizatsiyalarning shohidi bo'lgan. Ulardan ko'pchiligi hozirgi dunyoda ham amal qilayotir. Masalan, G'arb, Islom, konfutsiylik, yapon, pravoslav-slavyan, Lotin Amerikasi, Afrika sivilizatsiyalari shular jumlasiga kiradi.

Bundan tashqari Yevropa va Shimoliy Amerika, turk va arab singari subsivilizatsiyalar ham bor.

G'arb va Sharq esa, ikki supersivilizatsiya hisoblanadi. Subsivilizatsiya – bu sivilizatsiya tarkibidagi alohida mavqe'ga ega bo'lgan taraqqiyotdir. Supersivilizatsiya esa, taraqqiyotning eng yuqori cho'qqisi va oldingi yuksakligidir.

Sivilizatsiyalar har doim kishilik mushtarakligining eng yuqori cho'qqisi bo'lgan va shundayligicha qoladi. Ular bugungi kunda ham til, tarix, din, udumlar singari umumiy, mutlaqo obyektiv bo'lgan jihatlari mavjudligi bilan bir-biridan ajralib turadi.

Turli sivilizatsiyaga mansub kishilar, individ va guruh, fuqaro va davlat, otalar va bolalar o'rtasidagi munosabatlarga turlicha qaraydilar. Huquqlar va majburiyatlar, erkinliklar va majburiyatlar, tenglik va iyerarxal mutanosibligi to'g'risida har xil tasavvurga ega bo'ldilar. Bu tafovutlar yuz yillar davomida jamlanadi.

Ular mafkuralar va siyosiy tartiblar o'rtasidagi tafovutlarga qaraganda yanada bardoshli bo'ladi.

Redyard Kipling o'zining "Sharq va G'arb xaqidagi ballada"sida shunday deb yozgan edi: "G'arb – bu G'arb, Sharq – bu Sharqdir. Ular yeru ko'k hali qo'rqinchli qiyomat kunida kunpayakun bo'lmaguncha bir joyda boshlarini qovushtirmaydilar".

Bu so'zlari bilan muallif, garchi insoniyat tobora ko'proq integratsiya va assimilyatsiya jarayoniga kirishayotgan bo'lsa-da, ularning madaniy, ma'rifiy taraqqiyoti va urf-odatlarida o'ziga xoslik saqlanib kolaveradi, demoqchi.

YA'ni, ishchilar dehqon turmushiga o'tishi va ulardek yashashi mumkin bulsa-da, rus kishisi qanchalik hojlamasin, ozarbayjon, eston yoki armanga aylana olmaydi. Biz bu to'g'rida keyingi darsimizda tuxtaymiz.

Fanning predmeti – yer yuzining odamzod yashaydigan qismidagi insoniyat aqli-zakovati, o'z qo'li bilan yaratgan moddiy va ma'naviy madaniyat tarix va taraqqiyot. Shuningdek, insoniyat taraqqiyotiga hissa qo'shgan eng yirik mamlakatlar va davlatlar, xalqlardir.

#### **1.4 Sivilizatsiya paydo bo'lishining shart-sharoitlari. Rim sivilizatsiyasining davomchisi.**

Yevropa qit'asi qiyin tarixiy sharoitni bosib o'tdi. Milod boshlarida Rimda sivilizatsiya gullab yashnagan bir paytda xalqlarning "Buyuk ko'chish"lari yuz beradi. Rimga qo'shni hududlarida yashovchi german qabilalari IV-VI asrlarda antik davr sivilizatsiyasini yo'q qilishdi. Vestgotlar dastlab imperiya yerlariga bosqinchilik yurishlarini amalga oshirdilar. So'ngra vandallar agressiv yurishlari yo'lida uchragan bor narsani vayron qildilar. Shu davrdagi "vandalizm" tushunchasi buzg'unchilik ma'nosini bildiradi. Rim imperiyasi qulab o'rnida qator german davlatlari vujudga keladi. G'arbiy Yevropada feodalizmga o'tish Rim va varvar jamiyatlari sintezi ostida yuz beradi.

G'arbiy Yevropa sivilizatsiyasi – bu murakkab kompleks bo'lib, u ko'plab davlatlar va siyosiy-iqtisodiy jihatdan bir-biriga bog'liq holda rivojlangan tarixiy jarayonni hosilasidir.

Yevropani birlashtirish harakatlari VIII-IX asrlarda boshlandi. Karl buyuk (768-814) qit'ani katta hududini birlashtirishga muvaffaq bo'ldi. Ko'pgina tarixchilar bu jarayonni Rim imperiyasini qayta tug'ilishi deb hisoblaydilar. Yoki Karl buyuk va Otton I davlatlarini yosh G'arbiy Yevropa sivilizatsiyasining asosi sifatida ham qarashadi. Albatta bu sivilizatsiya katolik cherkov ta'sirida ham shakllandi. Biroq, asosiy manba: antik davr merosi va germanlar dunyosi aralashuvi bo'lib qolaverdi.

313 yilda Rimda xristianlik dini davlat dini deb e'lon qilindi. VI asr boshlarida dastlabki manostrlar vujudga kelib, birinchi marta avliyo Benidint Montikassinoda asos solgan bu yerlar ancha vaqt maorif markazlari ham bo'lib kelgan. Rim vestgotlar tomonidan egallanganidan so'ng A.Avgustin "Xudo shahri to'g'risida" nomli asarini

yozgan. Unda cherkovni qudrati haqida soʻz boradi. Shunday qilib teokratik (ruhoniylar hokimiyati) vujudga keladi. VIII asrda Papalar davlati paydo boʻldi va ular qirollar tomonidan katta yer hamda imtiyozlarga ega boʻlishadi. Papalar davlati markazlashgan davlat tusini oladi. Keyinchalik katolik cherkov feodallashib indulgensiya orqali boyib ketadi. Papalar XI-XIII asrlarda oʻz qudrati choʻqqisiga chiqadi. 1096-1770 yillarda salb salb yurishlarini uyushtiradi. Maqsad esa boylik orttirishdan iborat edi. Biroq, cherkov hokimiyati uzoqqa choʻzilmadi. XIV asrdan Yevropada markazlashgan davlatlar vujudga keldi. Papalar davlati inqirozi boshlanadi.

### **1.5. Oʻrta asrlardagi Vizantiya madaniyati. Rossiya sivilizatsiyasining oʻziga xosligi.**

Sharqiy Rim yoki Vizantiya imperiyasi paydo boʻlishiga turli yondashuvlar bor, ayrim tarixchilar buni imperator Konstantinning eski yunon shahri Vizantiya oʻrniga asos solgan yangi shahar (339) (Konstantinopol) bilan, ayrim tarixchilar esa imperator Feodosiyning oʻgʻli (355) Arkadiy bilan, lekin tarixchilar koʻproq 476 yil Gʻarbiy Rim qulashi natijasida tarix saxnasida imperiyaning sharqiy qismi oʻzini saqlab qolgani bilan bogʻlashadi.

Sharqiy qismni – Gʻarbiy qismdan kuchliroqligini harbiy, iqtisodiy, ijtimoiy va moliyaviy sabablar bilan ifodalasa boʻladi.

Sharqiy qismning iqtisodiy kuchi, hududda (Misr, Shimoliy Mesopotamiya, Yaqin Sharq, Kichik Osiyo, Bolqon yarim oroli) sharq mamlakatlari bilan savdo-sotiq ancha yuksakligi, qishloq xoʻjaligi ishlab chiqarishi asosan erkin dexqonlarga suyanligi va markaziy hokimiyatni kuchliroqligi bilan ajralib turadi.

Quldorlik tuzumi ham keskin tushunkunlikka uchramaydi, bunga asosiy sabab koʻl gʻarbidagi asosiy rolni oʻynagan. Sharqiy imperiyasida jamoatchi dexqonlar davlat dexqonlari boʻlib oʻz yerlari, shaxsiy mulk va xoʻjaliklari boʻlgan. Sharqiy Rimning ilk yuksalishi imperator Yustinian bilan bogʻliq (527-565 yy).

Yustinian Vizantiya tilida yirik imperator, davlat arbobi, Sarkarda va qonunchi sifatida tarixga kiradi,

Yustinian va sobiq Rim imperiyasi maqsadida Varvar (534 – Vandallar qiroli, 555-Ostgotlar va Vestgotlar qirolligini) davlatlarini bosib oldi. Oʻrta yer dengizi ichki dengizga aylandi.

Lekin Yustinian davrida xuddi Gʻarbiy Rim imperiyasiga varvar qabilalarni siqib chiqarishi Sharqiy imperiyada ham yuz berdi, Bolqon yarim oroli janubiy slavyan qabilalarini va Langobardlarni bostirib kirib quldorlik tuzumini yemirishiga va yangi feodal munosabatlarni shakllanishiga olib keldi.

Yustinian tarixga yirik qonunchi sifatida ham nom qoldirgan. 528-534 yillarda toʻrt qismdan iborat yuridik kodekslar yaratilgan

I. 12 tomli (jildli) Yustinian kodeksi – Rim imperatorini qonunlari;

II. Digestlar – 50 ta kitob – mashhur yuristlarni asarlaridan parchalar;

III. Institusiyalar – sudyalari va o'quvchi yuristlar uchun qo'llanma;

IV. Novellalar – Yustinian kodeksiga kirmagan yangi qonunlar.

Qonunlarda quldorlik tuzumi yemirilishi va shaxsiy mulkdorlarni paydo bo'lishi yuridik hujjatlarga e'tibor qaratilishi ko'zga tashlandi, bu qonunlarni chiqarishdan maqsad bir tomondan quldorlik tuzumini saqlab qolish.

Yustinian umri oxirida barpo etilgan davlat yemirila boshlandi, bunga asosiy sabablardan biri bosib olingan hududlarda quldorlik bekor qilinmaganligi, aksincha mahalliy aholi ustidan zulm kuchaytirilganligi, harbiy rishlarni moliyaviy qoplash esa soliqlarni oshirdi, bu esa erkin dexqonlarni noroziligiga olib keldi. Harbiy mag'lubiyatlar Vizantiyani sharqda ham uchradi, ya'ni avvalgi Eron o'rniga yangi asosiy dushman arablar paydo bo'ldi.

636-642 yillari Vizantiya, Suriya, Falastin, Yuqori Mesopotamiya, Misr va boshqa hududlardan mahrum bo'ldi. 602 yili Konstantinopolda saroy to'ntarishi natijasida Yustinian sulolasi taxtdan tushirilib yangi Iraklii sulolasi keldi Yustinian sulolasini oxirgi vakili Mavriki to'ntarish natijasida butun oilasi bilan so'rib tashladi.

Imperator Iroklii vaqtida (610-641) imperiya ozmuncha mustahkamlandi, Eronliklardan Suriya, Falastin, Misr qaytarib olindi, lekin bu ko'pga bormadi, VII asr 30-40 yillarida bu hududlarni arablar tortib oldi.

Iroklii vorislari davrida Vizantiya hududi yanada qisqardi, Shimoliy Afrika arablar tomonidan, bolqon yarim oroli Bolgariya (679) davlati tomonidan tortib olindi.

(Yustinian davri bilan solishtirilsa Vizantiyada faqat Bolqon yarim orolini janubiy qismi, Janubiy Italiyaning bir qismi, Qrim yarim orolining bir qismi, Kichik Osiyo va Arxepelag orollari).

VII asrda Vizantiyada hududiy o'zgarishlardan tashqari ichki, ijtimoiy-iqtisodiy o'zgarishlar ham ro'y berdi, Aleksandriya va Antioxiya yo'qotilganidan so'ng Konstantinopol Sharq va G'arb o'rtasida muhim savdo ko'prigiga aylandi, quldorlikni yemirilishi tezlashib feodalizmni rivojlanishi davom etdi.

VII asr boshlarida Vizantiya hududiga slavyan qabilalarini kirib kelishi yer munosabatlarga keskin o'zgarishlar olib keldi, shu davrga oid manbalarga qaraganda o'ziga xos "Dexqonchilik qonuni" yer va yerga egalik qilish turlari yaqqol ko'rsatilgan.

Vizantiyadagi kelgindi slavyan dehqon aholining ahvoli "Dehqonchilik qonuni"da juda yaxshi ta'riflangan, bu manba VIII asrga oiddir, lekin unda VII asrdagi agrar munosabatlar ham aks etgan. Ushbu manbaga qarab fikr yuritilganda, bu dexqonlar erkin aholi bo'lib, ularning o'z ekinzorlari, tokzorlari va bog'lari bo'lgan. Dehqonlarning xo'jaligida dehqonchilikning o'zidan tashqari, chorvachilik ham katta rol o'ynagan. Har bir dehqonning yer uchastkasi ekinzor, tokzor yoki bog'dan iborat bo'lib, uning o'z xususiy mulki deb hisoblangan, lekin unda jamoa yer egaligining alomatlari ochiq ko'rinib turar edi.

XIII asr boshida Vizantiya arablar tomonidan siqila boshladi, Kichik Osiyoga bostirib kirib, Kipr va Rodos orollari bosib olinib 717-718 yilda, bir yil davomida Konstantinopol qamal qilindi, lekin Konstantinopol bunga bardosh berdi va arablar



shaharni bosib olishdan qaytishdi. Konstantinopolning qulay strategik mavqei, Vizantiyaliklarning “Greklar o‘ti” deb atalgan o‘tni ishlatishi, imperatorga ittifoqchilar, ya’ni Bolgarlarning yordam berishi natijasida, arablar katta talofat ko‘rib, chekinishga majbuur bo‘ldilar. Yangi saylangan imperator Lev III Isavr iste’dodli tashkilotchi va qobiliyatli oliy qo‘mondon bo‘lib chiqdi. U Suriya bilan chegaradosh Isavriya viloyatidan chiqqan bo‘lib, yangi isavrlar dinastiyasiga asos solgandir. Isavrlar dinastiyasi Vizantiyani butun bir yuz yil davomida (717-802) idora qildi. Lev III (717-740) va unga yordamchi bo‘lib, uning o‘rniga imperator bo‘lgan. Konstantin u (740-775) arablarga qarshi kurashda katta tajriba orttirgan harbiylar edi. Lev III imperator bo‘lgandan keyin harbiy ishga katta e’tibor berdi. VII asrda Irakliy va uning vorislari davridayoq Vizantiya hukumati yollanma qo‘shnilarga qo‘shimcha ravishda mahalliy lashkarlar to‘plagan qismini amalga oshirgan, bu mahalliy lashkarlar mahalliy mablag‘lar hisobidan ta’minlanardi. Lev III zamonida bu harbiy reforma yanada rivoj topdi.

Vizantiyaning asosiy raqibi bo‘lgan arab xalifaligi mayda davlatlarga bo‘linib ketdi, Makedoniyalik sulola davrida imperiya hududi kengayib bordi, arablardan Krit, Kipr orollari, Antioxiya shahri bilan birga Suriyaning katta qismi qaytarib olindi, slavyan davlatlari bilan munosabatlar yomonlashib ketdi, Bolgariya podsholigi bosib olindi, Bolqon yarim orolidagi serb, xarvat va boshqa qabilalar hududi qisqa vaqt bo‘lsada bo‘ysundirildi. Makedoniyaliklar sulolasi davrida Vizantiya va Rus davlati o‘rtasida yaqinlashuv yuz berdi.

### **1.6. O‘rta asrlar G‘arb mafkurasi. Industrial jamiyat.**

Ko‘pgina tadqiqotchilar o‘rta asrlar va yangi davr chegarasini aniqlashda bahslar olib boradi. Ba’zilar Angliya burjua inqilobi yangi tarixni boshlab berdi, degan fikrni ilgari suradi. Aslida o‘rta asrlarning so‘nishi boshlandi. XV asrdayoq buyuk geografik kashfiyotlar G‘arbiy Yevropa chegarasini buzib yubordi. Odamlar dunyoqarashi o‘zgardi, ilmiy bilimlarga qiziqish kuchaydi. XV asr Yevropa uchun boshqa xalqlar bilan o‘zaro aloqalarda keskin o‘zgarishlar davri bo‘lib xizmat qildi. Savdo-sotiqni rivojlanishi bilan metalga talabning ortishiga olib keldi. Natijada yangi savdo yo‘llari ochish uchun harakat boshlandi. Uni birinchi bo‘lib portugallar va ispanlar boshlab beradi. Buning natijasi esa okean yoki global sivilizatsiyani vujudga keltirdi. Shuningdek, yangi dunyo bilan tanishuv ilmiy bilimlarni ham kengayishiga olib keladi. N.Kopernik, J.Bruno, G.Galiley, R.Paskal, Dekart, Bekon kabi olimlar yetishib chiqdi.

Shu bilan birga shaharlarning tashqi va ichki hayoti o‘zgarib bordi. Manufaktura shaharlarni egallab oldi. Uning ham ikki formasi mavjud edi. Markazlashgan hamda tarqoq holat. Shuningdek, yangi dvoryanlar qatlami va ishchilar qatlami vujudga kela boshladi.

### **1.7. G‘arbda gumanizm.**

XV-XVI asrlarda Renesans va Reformatsiya G‘arbiy Yevropa ma’naviy hayotini tubdan o‘zgartirib yubordi. Reformatsiya Germaniyada Martin Lyuter

tomonidan boshlandi. U o'zining "95 tezis"ida katolik papasining kirdikorlarini fosh etadi. Bu jarayon keyin keng tus olib natijada protestantlik oqimi paydo bo'ldi.

Renesans XVI asrda Italiyada boshlandi. Rassomlikda Leonardo da Vinchi, Rafael, Mikelanjelo kabilar insonlarni ma'naviy hayotini ya'ni ichki dunyosini ochib berishni shz maqsadlari qilib qo'yadi. Adabiyotda U.Shekspir, M.Servantes kabilar o'z asarlari bilan yangi davrni boshlab beradi.

Umuman olganda, reformatsiya va buyuk geografik kashfiyotlar yangi tarixni va yosh, g'arb sivilizatsiyasini boshlab beradi. Ishlab chiqarish munosabatlarini boshqa shakllari vujudga keladi. Yevropa davlatlari birin-ketin kapitalistik rivojlanish yo'liga o'tdilar. Sanoat inqilobi yuz beradi. Fan va texnikaning yuksalishi AQSH-ning dunyo miqyosida raxnamolikka yo'lni ochib beradi.

Sanoatlantirish davrida g'arb madaniyati yuksaldi. Endi texnotron jamiyat va informatsion jamiyat tushunchalari paydo bo'ldi. Ommaviy madaniyat tushunchasi keng ishlatila boshlandi. Mazkur qarash va tushunchalar bugungi kun g'arb chiqivilizatsiyasining yorqin ko'rinishi sifatida namoyon bo'lmoqda.

**2-мавзу: Қадимги Месопотомиянинг аҳолиси. Шумер муаммоси. Қадимги Миср маданияти. Миср гироглифлари. Илмий билимлар.**

**РЕЖА:**

2.1 Цивилизация пайдо бўлиши шарт-шароитлари.

2.2 Цивилизациялар тизимида Миср.

2.3 Месопотомия цивилизациясининг ўзига хос хусусиятлари.

**Tayanch iboralar:** *Qadimgi Mesopotomiyaning aholisi. Birinchi dehqonchilik xududlarining o'zlashtirilishi. Shumer muammosi. Semit qabilalari. Miloddan avvalgi IV-III ming yilliklarda Shumer. Akkad va Ur hukmronligi davrida Mesopotomiya. Qadimgi Misr jamiyatning siyosiy tizimi muammolari. Iqtisod va sotsial institutlar dolzarb jihatlari. Qadimgi Misr madaniyati. Misr girogliflari. Ilmiy bilimlar. Qadimgi Misr san'atining o'ziga xos xususiyatlari.*

### **2.1 Sivilizatsiya paydo bo'lishi shart-sharoitlari.**

Eng qadimgi sivilizatsiyalardan biri Misr qulay tabiiy – geografik joylashuvga, boy tabiiy resurslarga ega bo'lgan, savdo, siyosiy va madaniy aloqalar chorrahasida joylashgan yerda vujudga kelgan. Sivilizatsiyaning moddiy asosini yaratish uchun zarur bo'lgan barcha narsalar Misrning o'zida yoki unga yondosh yerlarda mavjud bo'lgan. Metallar, asosan mis Arabiston sahrolari va Sinay yarim orolidan, oltin Efiopiyadan keltirilgan. Nilni g'arbdan sharqqa tomon o'rab turuvchi tog'lardan chaqmoqtosh, Qohira atrofidagi Tur tosh konlaridan ohaktosh, Asuan yaqinidan marmarning qimmatbaho navlari qazib olingan. Mamlakat o'simlik va hayvonot dunyosi ham boy bo'lib, misrliklar xo'jalik hayotida muhim o'rin tutgan.

Ilk odamlar Nilning bo'ylarida neolit davrlarida paydo bo'lishgan. Bu yerga ularni tashqi sharoit boshlab kelgan: iqlim quruqlashib, sahro bostirib kela boshlagan. Dastlab Nil vodiysi chekkalariga joylashgan odamlar dehqonchilik, chorvachilik, ov, baliqchilik va termachilik bilan shug'ullanishgan. Ilk dehqon jamoalari m.a. VI-V ming yillikda Quyi Misrda Fayum vodiysida mavjud bo'lgan. Fayum manzilgohida g'alla ekinlari ekilgan, yirik va mayda qoramol boqilgan va baliq tutilgan.

Vohaning qulay tabiiy sharoiti tufayli manzilgohlar rivojlanib, ularning aholisi turmushi farovonlashib borgan. Ilk dehqonchilik madaniyati shakllangan. Bunga misol tariqasida Badari madaniyatini ko'rsatish mumkin. Yuqori Misrdagi Badari madaniyati (yer. avv. IV ming yillik) ga tegishli aholi o'troq tarzda urug' jamosi bo'lib yashab, chorvachilik va dehqonchilik bilan shug'ullanganlar. Yerga motiga

bilan ishlov berilib, kichik kanallar qazilgan. Ov va baliqchilik ham mavjud bo'lgan. Badariylar hunarmandchilik sohasida katta yutuqlarni qo'lga kiritganlar.

Mashaqqatli kechgan Nilni bo'ysundirish jarayonida misrliklar hayotida jiddiy o'zgarishlar sodir bo'ldi. Mehnat sharoitlari o'zgardi, uni tashkil etish bilan asosan qabila boshliqlari va kohinlar shug'ullanishgan. Bu esa mulkiy tengsizlikni boshlab berdi. Har bir sug'orish xo'jaligi insonlarni qandaydir hududiy birlikka, o'ziga xos qo'shnichilik jamoasiga – nomlarga birlashtirdi. Davlat tashkil etilishidan oldingi davrda Misrda 40 ga yaqin shu kabi nomlar mavjud edi. Ularning birlashtirilishi oqibatida o'zaro raqobatchi ikki podsholik – Yuqori va Quyi Misr vujudga keldi.

## **2.1 Sivilizatsiyalar tizimida Misr.**

Yuqori va Quyi Misr o'rtasidagi uzoq davom etgan kurash Quyi va Yuqori Misrning homiylari bo'lgan xudolar Gor va Set o'rtasida borgan kurash to'g'risidagi diniy afsonada o'z aksini topgan. Misr sivilizatsiyasi tarixi davomida mavjud bo'lgan ikki mamlakat fir'avni unvoni va davlat ma'muriyatining ikkiga bo'linishi ham Yuqori va Quyi Misrning alohida podsholik sifatida uzoq muddat mavjud bo'lganligini ko'rsatadi. Misrning bu ikki qismining birlashishi bilan ularning ramzi bo'lgan qizil va oq ranglardan iborat toj Misr sivilizatsiyasining yakuniga qadar podsholik ramziga aylandi.

Ilk podsholik davrida sun'iy sug'orishning xo'jalik madaniyati asosida Misr sivilizatsiyasining iqtisodiy va siyosiy tizimlari shakllana boshlagan. Bu davr asosiy funksiyasi Nil vodiysida sug'orish ishini tashkil etish bo'lgan umummisr davlat aparati tashkil topish davri edi. Yuqori mahsuldor bo'lgan qishloq xo'jaligi moddiy madaniyatning taraqqiy etishiga asos bo'ldi. Hunarmandchilik rivoj topdi. Ilk podsholik davridayoq misrliklar papirus tayyorlashni bilishgan. Papirusning paydo bo'lishi sivilizatsiya rivojining asosiy omillaridan biri bo'lgan yozuvning keng tarqalishiga turtki bo'ldi.

Qadimgi podsholik davri 500 yildan ortiq davom etdi ( m.a.2800-2300 yy). Bu davrda Misr qo'shnilari bilan muvaffaqiyatli urushlar olib borayotgan yirik markazlashgan davlatga aylandi, Misr sivilizatsiyasining ideallari va asosiy qadriyatlari shakllandi.

Mamlakatning mustahkam yaxlitligi uning iqtisodiy gullab-yashnashiga asos bo'ldi. Qadimgi podsholik davri iqtisodida oliy amaldorlar xo'jaligi katta rol o'ynagan. Podsho va ibodatxona xo'jaliklari ham amaldorlar xo'jaligiga o'xshash bo'lgan. Ularni birlashtirgan xususiyat ko'psonli xizmatchilar ustidan o'rnatilgan kuchli nazorat, mehnat va uning natijasini qattiq hisob-kitob qilish bo'lgan.

Shakllangan Misr davlatining tepasida yunonlar fir'avn (misrcha per-o – “ulug' uy”, “katta xonadon” so'zidan kelib chiqqan) deb atagan hukmdor turgan. Fir'avn odam qiyofasidagi xudo deb tasavvur qilingan. U cheklanmagan iqtisodiy, siyosiy va oliy kohinlik hokimiyatiga ega bo'lgan. Qadimgi podsholik davridagi Misr sivilizatsiyasi Qadimgi Sharq despotiyasining noyob namunasi. Despotiyaning moddiy timsoli fir'avnlarning muhtasham dahmalari – piramidalar bo'lgan.

Davlat boshqaruvi tizimi yakka hukmronlikka, cheklanmagan hokimiyatga ega podshoning ilohiyligini targ'ib etuvchi diniy mafkuraga asoslangan. Fir'avning eng yaqin yordamchisi oliy amaldor-chati (bosh vazir) bo'lgan. U bir vaqtning o'zida bosh sudya, fir'avn nomidan mamlakat xo'jaligining umumiy nazoratini amalga oshiruvchi, bir qator davlat amallarining egasi bo'lgan. Bu yuksak amalni odatda podshoning o'g'li egallagan.

Tarqoqlik va nomlar o'rtasidagi kurash Misr sivilizatsiyasi farovonligi va taraqqiyotining asosi bo'lgan sug'orish tizimi holatiga salbiy ta'sir ko'rsatdi. Birlashish jarayoniga ikkita markaz boshchilik qildi: shimoldagi Gerakleopol va janubdagi Fiva. Kurashda yakuniy g'alabani Fiva podshosi Mentuxotep I qo'lga kiritdi va mamlakat yaxlitligini tikladi. Ushbu hodisadan O'rta podsholik davri boshlandi (m.a. 2050-1700 yy). Bu Misr sivilizatsiyasi tarixidagi murakkab, shu bilan birga ahamiyatli davr edi.

Taxminan m.a. 2000 yilda Amenemxet I ning fir'avn bo'lishi bilan O'rta podsholikning gullab-yashnash davri boshlandi. Mamlakatni birlashtirishga va markaziy hokimiyatni kuchaytirishga intilgan fir'avnlarning nomlarini o'z ta'sir doiralari olishga urindilar.

Amenemxet va Senusert nomlari bilan 8 ta fir'avn hukmronlik qilgan bu davrda misrliklar o'z qo'shnilari bilan muvaffaqiyatli urushlar olib bordilar, bronza quyish va shisha tayyorlashni o'zlashtirdilar. Bu davrda hunarmandchilik, jumladan to'qimachilik rivoj topdi. Yagona Misrning tashkil topishi tashqi savdoning yanada taraqqiy etishiga olib keldi.

Misr moddiy boyligining asosiy yaratuvchisi bo'lgan mehnatkash xalq "podsho odamlari" deb nomlangan. Ularning asosiy majburiyati qaysi yer- mulkka birlashtirilganidan qat'iy nazar o'z kasblari doirasidagi ishni bajarish edi. Kasb va hunar bo'yicha taqsimlanish misrliklarning ixtiyorida emas edi.

M.a. 1700 yil atroflarida sharqdan Misrga Janubiy Suriya va Shimoliy Arabiston qabilalarining ittifoqidan iborat giksoslar bostirib keldi. Shimoliy Misrda o'rnashib olgan bosqinchi giksoslar misrliklarni yilqichilik, jang aravasi, janglarda otliq qo'shindan foydalanish bilan tanishtirdilar.

Giksoslarga qarshi kurashni tashkil etgan Fiva nomining hukmdori Yaxmos nafaqat bosqinchilarni quvib chiqdi, balki mamlakatni birlashtirdi. Shu tariqa m.a. 1600 yil atroflarida Misr sivilizatsiyasi Yangi podsholik davriga qadam qo'ydi.

Yangi podsholik davrida (m.a. 1580-1085 yy) Misr iqtisodiy ko'tarilishni boshidan kechirdi va Sharqiy O'rtayer dengizida hukmron mavqeni qo'lga kiritdi. Temir paydo bo'ldi, ammo u hali noyob metall sifatida qabul qilinardi. Yangi podsholik davrida metallurgiya taraqqiy etdi, yangi texnika va texnologiyalar joriy etildi. Masalan, teri bosqon, takomillashgan omoch, shaduf va h.k.

Yangi podsholikning iqtisodiy yuksalishi fir'avnlarning bosqinchilik siyosati bilan bog'liq edi. Janglarda toblangan qo'shin Misr podsholarining tayanchiga aylandi. Jangchilar davlat ta'minotida edi.

Qaram yerlar va Misr aholisini talanishi natijasida hukmron tabaqa, ayniqsa ko'p sonli yaxshi uyushgan kohinlar tabaqasi boyib ketgan. XVIII sulola davrida Fivadagi Amon ibodatxonasi nihoyatda katta obro' – e'tiborga ega bo'lgan.

Mamlakatda Amon ibodatxonasi kohinlarining mavqei kuchayib, ular Misr iqtisodiy va ijtimoiy-siyosiy hayotiga kuchli ta'sir ko'rsata boshlaganlar. Bu holat davlat hokimiyatiga katta muammolarni tug'dirgan. Natijada Amenxotep IV diniy islohot o'tkazgan. Amenxotep IV (m.a 1372-1354 yy) davrida "quyosh shu'las" xudosi Aton birinchi o'ringa qo'yila boshlangan. Bu fir'avning o'z nomini exnaton deb o'zgartirishida ham o'z ifodasini topgan. Shu bilan birga exnaton Fiva kohinlari bilan uzil-kesil suratda aloqani uzib, Fivadan go'zal saroy va ibodatxonalar bilan bezalgan yangi poytaxt Axetaton (Aton shahri) ga butun saroy amaldorlari va yangi quyosh xudosi kohinlari bilan birga ko'chib kelgan va Aton Misrning yagona va oliy xudosi deb e'lon qilinadi. Exnaton Fiva kohinlari va nomlardagi quldor zodagonlarni qudratini vaqtincha bo'shashtirishga muvaffaq bo'lgan. Exnatondan keyin taxtga o'tirgan fir'avnlarning uning diniy siyosatini davom ettira olmaganlar. Ulardan biri Tutanxaton Fiva kohinlariga yon berib, Amon e'tiqodini qaytadan tiklashga va hatto o'z ismini ham shunga yarasha o'zgartirib «Tutanxamon» deb atashga majbur bo'lgan.

Ramzes I va Ramzes II davrida davom etgan xetlar bilan urushlar m.a 1292 yilda tinchilik sulhi tuzish bilan yakunlandi. Ammo Ramzes II vorislari davrida Misr endi liviyalik qabilalar va dengiz xalqlari hujumidan himoyalanişga majbur bo'ldi.

So'nggi davrda (m.a. XI-V asrlar) Misr sivilizatsiyasi og'ir damlarni boshidan kechirdi. Misr tarixining So'nggi davridagi beqarorlik temirning sekinlik bilan joriy etilishi, sudxo'rlikning avj olishi, jamiyatning erkinlar va qullarga yanada qat'iy bo'linishi, mamlakatning tarqoqligi, Liviyalik yollanma qo'shin harbiy tabaqasining shakllanishi, kohinlik lavozimlari uchun keskin kurash, janubdan efiopiyaliklar, sharqdan ossuriyaliklarning bosqini bilan ifodalanadi. Shunga qaramasdan Misr sivilizatsiyasi o'z yutuqlari va erishgan natijalarini saqlab qoldi.

Misrning ozod etilishi va qayta birlashishi Sais sulolasi asoschisi, yunon va krit yollanma qo'shiniga tayangan Psammetix I davrida yuz berdi. Misrliklarning Suriya va Falastindagi hukmronligi qisqa muddatga tiklandi, Kipr, Samos, Kirena bilan iqtisodiy aloqalar o'rnatildi. Ammo m.a. 525 yilda Misr forslar, m.a. 332 yilda Makedoniyalik Iskandar tomonidan bosib olindi. Fir'avnlarning davridagi Misr sivilizatsiyasi davri tugadi. Yana markazlashgan yagona davlatga aylangan Misr uchun uch asrlik Ptolomeylar davri, ellinizm davri, siyosiy va iqtisodiy qudrat davri boshlandi. Ushbu sulolani Makedonskiyning sarkardasi Ptolomey I boshlab berdi va Kleopatra yakunladi. Ptolomeylar Misri uning davrida Rim tomonidan bosib olindi va Rim provintsiyalaridan biriga aylantirildi.

## **2.1 Mesopotamiya sivilizatsiyasining o'ziga xos xususiyatlari.**

Mesopotamiyadagi mavjud ibodatxona, davlat xo'jaligi bilan o'xshashligini ko'rsatadi. Ishlab chiqarish taraqqiyoti darajasi, shaharlar va yozuvning mavjudligi, uy-joy inshootlari hajmlarining katta-kichikligi aholi o'rtasida ijtimoiy tengsizlikni mavjudligidan ham darak beradi.

Yer. avv. III ming yillik boshlaridan shumerlar jezni o'zlashtira boshladilar. Shu davrdan arxeologlar ilk sulola davrini (yer. avv. 3000-2300-yillar atrofi)

belgilaydilar. Shumer an'anasi esa mamlakat tarixini qaysidir "to'fon" gacha va "to'fondan" keyingi davrga bo'ladi. Haqiqatdan ham er. avv. 2900-yillar atrofida Quyi Mesopotamiyadagi qazishmalarga ko'ra "to'fon" bo'lgan. Shumer tarixi u yoki bu markazning siyosiy yetakchiligiga qarab er. avv. III ming yillikning birinchi yarmida ilk sulola davrini tashkil qilgan uch bosqichga bo'lish qabul qilingan.

Bu davrda Kish shahri yuksalib I Kish sulolasi hukmronlik qiladi. Uning hokimlari orasida shumer afsonalari qahramonlaridan biri etana ko'zga tashlanadi. Kishning qudrati juda uzoq vaqt xotirada qolib, keyinchalik ko'p hokimlar «Kish lugali» unvoniga ega bo'lishga harakat qilganlar, bu unvonning egasi lugal-"yetakchi" bo'lgan. Kishning hokimlaridan biri etana (yer. avv. XXVIII asr) to'g'risida epik rivoyat shakllanib, rivoyatda u ilohiy burgutda o'zi uchun "tug'ilish maysasi"ga ega bo'lish va voris merosxo'r olish uchun osmonga xudolar oldiga ko'tariladi deb hikoya qilinadi.

Shu davrga kelib ibodatxona xo'jaliklariga ham soliq solinadi, hunarmand, jamoachilardan turli majburiyatlarni o'tash talab qilinadi. Daromad solig'i ko'payadi. Lagashda ijtimoiy ziddiyat kuchayadi. Yangi «yensi» Urukagina ijtimoiy ziddiyatlarni bo'shashtirish uchun islohot o'tkazadi. Oliy kohinlar soliqlardan ozod qilinadi, ibodatxonalarning qaram kishilarga natural mahsulot to'lovi miqdori oshirilib, ularning huquqlari kafolatlanadi. Aholidan olinadigan soliq-to'lovlar bir qadar kamaytiriladi. Urukagina «Lugal» unvonini qabul qiladi. Ammo ichki ziddiyatlar Lagashni zaiflashtiradi. Lagashning ichki qiyinchiliklaridan foydalangan Umma shahri podshosi Lugalzagissi er. avv. XXIII asr oxirida Lagashni bosib olib, butun Shumerda chorak asr yetakchilik mavqeiga ega bo'ladi. Umma shahar-davlati hududi O'rtayer dengizidan Fors qo'ltig'igacha (shumercha "Yuqori dengizdan to quyi dengizgacha") cho'zilib ketgan.

Yana bir Sargon davlati, oldingi Mesopotamiya davlatlaridan farq qilgan holda markazlashgan davlat edi. Sargon va uning vorislari davrida mamlakatda iqtisodiyot, pul-tovar munosabatlari, sun'iy sug'orishga asoslangan dehqonchilik yuksaladi. Podshoning mustabid hokimiyati urug' zodagonlarining, oqsoqollar kengashining kuchli qarshiligiga uchraydi. Podsho ularning qarshiligini sindirish, o'z hokimiyatini mustahkamlash uchun xizmatdagi zodagonlar, amaldorlar qisman kohinlarga tayanib ish ko'radi. Ba'zi shaharlarning merosiy «Ji»lari (hokimilari) o'rniga podsho o'z kishilarni tayinlaydi. Sargon muntazam qo'shinni tashkil qilib, harbiylarga xizmat uchun yer ajratib beradi. Natijada podsho («Sharrum») ning qudratli hokimiyati vujudga keladi.

Sargon va uning merosxo'rlari Rimush, Naramsuen (yer. avv. 2236-2200-yillar) podshoning mustabid hokimiyatini mustahkamlash uchun isyonchi shaharlar, «yensi»lar, urug' zodagonlariga qarshi muntazam kurash olib borishga majbur bo'lganlar. Podsho hokimiyatini mustahkamlash uchun merosiy «yensi»larni, o'z o'g'illari bilan almashtirganlar, merosiy hokimlar oddiy amaldorlar darajasiga tushirilgan. Podsho ichki siyosatda kohinlarga suyanadi. Kohinlarga ko'plab imtiyozlar berilgan. Podsho va uning o'g'illari ibodatxona kohinlari lavozimini bajarganlar. Kohinlar Naramsuenni «akkad xudosi» deb tan oladilar. Naramsuen faol tashqi siyosat olib boradi. Subartu, elam, Fors qo'ltig'igacha, Zagros tog'larida

lulubeylarga nisbatan g'olibona yurishlari va tashqi siyosatdagi yutuqlari uchun «dunyoning to'rt iqlimi podshosi» unvoniga ega bo'ladi. Akkad podshohligining qudratiga Mesopotamiyaga Zagros tog'laridan bostirib kirgan tog'li qabilalardan bo'lgan qutiylar chek qo'yganlar.

Shunday qilib fanda o'lik sivilizatsiyalar deb ataluvchi, xalqlarning katta bir rivojlanish davriga kelib, dunyo miqyosida insoniyat ulkan sakrashni amalga oshirdi.

### **3-мавзу: Милоддан аввалги III-II минг йилликларда Ҳиндистон цивилизацияси. Хитой цивилизацияси.**

#### **РЕЖА:**

- 3.1 Қадимги Хитой ва Ҳиндистон цивилизациясининг ўзига хос хусусиятлари, пайдо бўлишининг шарт-шароитлари..
- 3.2 Хитой цивилизациясининг ўзига хос хусусиятлари. Давлат бошқарувлари ва эътиқодлари.
- 3.3 Мохинжадаро ва Харалпа маданиятлари.
- 3.4 Ҳиндистондаги дин ва эътиқодлар ранг-баранглиги.

**Tayanch iboralar:** *Miloddan avvalgi III-II ming yilliklarda Xitoy. Shan va Chjou davri. Miloddan avvalgi VIII-III ming yilliklarda Xitoy., Konfusiy ta'limoti, dao ta'limoti, moi ta'limoti, legizm. Sin markazlashgan davlatini vujudga kelishi dolzarb jihatlari Miloddan avvalgi III-II ming yilliklarda Hindiston sivilizatsiyasi. Sotsial va siyosiy tuzum dolzarb jihatlari. "Veda davri". Shimoliy Hindistonda davlatlarning vujudga kelishi muammolari.*

#### **3.1 Qadimgi Xitoy va Hindiston sivilizatsiyasining o'ziga xos xususiyatlari, paydo bo'lishining shart-sharoitlari..**

Bugungi kunda tarixning necha minglab yillaridan iborat sinovlariga bardosh berib, yanada charhlanib, o'z rivojlanish yo'liga ega bo'lgan sivilizatsiyalar mavjudligi hammamizga ayon. Shunday rivojlanishni davom ettirayotgan sivilizatsiyalardan biri Hind hisoblanadi. Xozirda biz Hind zaminida dunyoga kelgan din va diniy e'tiqodlar to'g'risida so'z olib borishga harakat qilamiz. Hinduizm asosini qadimgi Hindistonning arxaik e'tiqodlari daraxtlar, tog', suv havzalari, ilon, sigir va maymun kabilarga sig'inish tashkil etadi.

Hozirgi kunda ham hinduizmda, qadimgi davrdan boshlab ma'buda onaga sig'inish katta rol o'ynaydi. Hinduizmda bosh yaratuvchi – xudo g'oyasi mavjud. Bu xudo Vishna bo'lib, u hayvonlar sirtlon, baliq, toshbaqalar, yoki insonlar odatda qora tanli podsho, yoki cho'pon (krishnalar) qiyofalarida namoyon bo'ladi. Vishna boshqa kichik xudolar timsoliga kirishi mumkin. Vishna odatda podsho tojida, ba'zida dunyo iloniday yastanib yotgan holda tasvirlanadi.



Boshqa hinduistlar bosh xudo deb sopol parchalarini osgan asket (davrish) yoki raqqos qiyofasida ifodalanadigan Shivani hisoblaydilar. Shivaga ko'pincha unga bag'ishlangan muqaddas ho'kiz hamkorlik qiladi. Qadimgi davr oxiri va hozirgi kunlarda hinduistlar Vishna va Shivaga e'tiqod qiluvchilarga bo'linadi.

Hinduistlarning muqaddas matnlari vedalar hisoblanadi. Hinduizmda ibodatxonada toat-ibodat qilish rasm bo'ldi. Bayram tantanalarining eng muhim qismi tantanali yurishlar, namoyishlar bo'lib, xudoning tasviri olib yurilgan. Ibodatxona oldida uning xizmatchilari koxinlar, raqqoslar, musiqachilar yashagan. Hinduizm mafkurasining asosiy belgilari «Bxagavadgita» («Xudo qo'shiqlari») poyemasi bo'lib, «Maxabxarot» tarkibiga kiritilgan. Hinduizmning axloqida cheksiz sabr-toqat qilishga chaqiriladi. Ijtimoiy munosabatlarda inson muloqoti o'z ijtimoiy doirasi bilan cheklanish kerak. Kasta bo'yicha kasbni o'zgartirish ta'qiqlanadi. Nikohni bolalikda o'qitish odati tarqalgan. Bevani o'z erini gulxanda kuydirgan paytda o'ziga olov berishi eng savob ish hisoblangan.

Qadimgi Hind adabiyotida markaziy o'rinni diniy adabiyot yodgorliklari egallaydi. Ularning eng qadimgilari vedalar, o'qituvchidan o'quvchiga og'zaki uzatilgan. Veda madhiyalarining katta qismi qurbonlik rasm-rusumlariga bag'ishlangan. er. avv. I ming yillikning ikkinchi yarmida budda adabiyoti shakllangan. Ilmiy va didaktik ruhdagi adabiyotlardan er. avv. V-IIIV asrlarda Panini tuzgan sanskrit grammatikasidir. Bu mutaxassislarning fikricha jahon fanida XIX asrgacha tilning eng yaxshi bayon qilingan asaridir. Hindistonda yozuv kechroq paydo bo'lgan, uning ilk namunalari biri Ashoki yozuvlaridir.

## **1.2 Xitoy sivilizatsiyasining o'ziga xos xususiyatlari. Davlat boshqaruvlari va e'tiqodlari.**

Yer. avv VIII asr boshlarida chjoularning Xuanxe daryosi yuqori oqimi havzasida yashagan jun qabilalari bilan to'qnashuvi kuchayadi. Junlar kelib chiqishi chjoularga qarindosh edilar, lekin turmush tarzi va xo'jalik yuritish shakli bilan farq qilganlar. 10 – van davrida (781-771 yillar) yarim ko'chmanchi junlar bilan hal qiluvchi to'qnashuv yuz beradi. Merosiy yer mulklarni ko'payishi, ijoxou (merosiy hudud hokimlari) mustaqilligini kuchayishi Van hokimiyatini zaiflashtirdi. Chjou PIX -van isyonchi chjouxoular va junlar hujumini qaytara olmadi. U poytaxt hududini tashlab ketishiga majbur bo'ladi. Bu voqea Xitoy an'anasida G'arbiy Chjou davrini tugashi deb hisoblanadi. Er. avv 770 yil poytaxt sharqqa hozirgi Loyan hududiga ko'chiriladi. Shu sababli er. avv VIII-III asrlar Sharqiy Chjou davri deb ataladi. Junlardan qochish vanning obro'-ye'tiborini keskin tushirib yubordi. Endilikda u Chjoular o'rtasidagi o'zaro munosabatlarga aralasha olmadi. Chjoxoular amalda mustaqil hokimlarga aylandilar, Vanning yerlari kamaytirilib, unga o'lpon to'lanmay qo'yildi. Er. avv. VIII asr oxirida Xitoy mingdan ziyod bir-biri bilan urushayotgan mustaqil mulklarga bo'linib ketdi, ammo ular mamlakatning an'anaviy birligini ramzi sifatida Chjou vani oliy hokimiyatini rasman tan oldilar. Bu davrda ijtimoiy tabaqalanish murakkablashdi, qullarning va qaram aholining soni o'sdi. Pul-

tovar munosabatlari, ishlab chiqarish kuchlari o'sadi. Van tomonidan yer-mulklar zodagonlar, harbiylarga taqsimlab beriladi. Yerga xususiy mulkchilik paydo bo'ladi.

Yeramizdan avvalgi VII asrdan boshlab separat kayfiyatlar kuchayib ketdi. Chjoularning Xuanxening yuqori oqimidagi jun qabilalari bilan to'qnashuvi kuchayadi. Ko'chmanchilar birlashib chjoularga katta xafv tug'diradilar va Chjou podsholiklari ichki kurashida ishtirok etadilar. O'rta Xitoy tekisligida birinchilik uchun bo'lgan kurashda Xuanxe quyi qismi Sin podsholigi (yeramizdan avvalgi 650 yil), keyinroq Szin podsholigi (yer. avv. 630-yil) yetakchi o'ringa chiqadi.

Xitoyda er. avv. V asrlarda temir tarqaldi. Temir mehnat qurollarini keskin ko'payishi aholini tez o'sishiga olib keldi. Hayvonlardan yerni haydashda foydalanila boshlandi. Mahsulotni, ekin yerlarini ko'payishi va umumiy beqarorlik ijtimoiy siljishlarga olib keldi. Yerga jamoa mulkchiligi tizimi tugadi. Er. avv. 1000 yillik o'rtalaridan yerni sotish va olish huquqi bilan yerga xususiy mulkchilik paydo bo'ldi. Davlat yer egalaridan yer solig'ini olishni joriy qildi, boy hunarmand-savdogarlar tabaqasi shakllandi. Shaharlarni va shahar aholisini ko'payishi kuzatildi. Er. avv. IV-III asrlarda metal tanga tarqaldi.

Bu davrda qadimgi Xitoyni asosiy ta'limotlari konfutsiylik, legizm, daosizm vujudga keldi. Konfutsiy (Kun-size er. avv. 551-479-yillar) ta'limoti bo'yicha inson tabiatan ezgulik hislatiga ega va o'z burchini sidqidildan o'tashga tayyor. Konfutsiy barcha ijtimoiy munosabatlar uchun oilani namuna hisoblaydi. Oilada kattalar kichiklarga g'amxo'rlik qiladilar va ularni tarbiyalaydilar, kichiklar ularni hurmat qiladilar va ularga bo'ysunadilar. davlatga xalq farzandlar o'rnida, hukmdor ota o'rnida bo'ladi, hukmdor o'z shaxsiy manfaati emas, xalq farovonligi to'g'risida g'amxo'rlik qilishi lozim.

Yer. av. IIV asrda ijtimoiy-iqtisodiy munosabatlarni barqaror holatga keltirish uchun ko'pgina podsholiklarda islohotlar o'tkaziladi. Ana shunday islohotlardan biri er. av. 350 yilda Sin podsholigida oliy amaldor Shan Yan tomonidan o'tkaziladi. Mamlakat uezdlarga bo'linadi, yer sotib olishga ruxsat beriladi, o'lchov birliklari unifikatsiya qilinadi, urug' zodagonlarning ayrim imtiyozlari bekor qilinadi. Mamlakat hududi 36 yirik ma'muriy okrugga bo'lingan, har bir okrug uezdlarga, uezdlar volostlarga, volostlar esa bir necha jamoadan iborat edi. Okrug boshlig'i va okrug qo'shin boshlig'i imperator tomonidan tayinlangan. Okrug boshlig'i esa uezd boshlig'i va ularning muovinlarini tayinlagan. Imperatorning ikki maslahatchisi bo'lib ular markaziy davlat apparatini boshqarganlar.

Markazlashgan davlat apparati harbiy, moliya, sud, imperator oilasi bo'limi va inspeksiya nazorat bo'limlaridan tashkil topgan. Qat'iy markazlashgan davlat boshqaruvi apparatida eng quyi bo'g'inda jamoa oqsoqollari turar edi. Davlat aholi hayotini barcha jabhalarini qat'iy bir qolipga soldi: aholidan barcha qurollar tortib olinib, qo'ng'iroqlar qo'yildi. mamlakat bo'yicha yozuv, pul, tanga, o'lchov birliklari unifikatsiya qilindi, beqiyos, shavqatsiz ruhda bo'lgan yagona qonunchilik tizimi joriy qilindi. Jinoyati uchun butun oila jazolangan, o'lim jazosi barcha ayblar uchun qo'llanilgan. Ommaviy ravishda katorga ishlariga surgun qilingan. Odamlar Sin davridan oldingi davrlarni xotirasidan chiqarishi uchun Sin podsholigidan oldingi

yo'zuvdagi asarlarni yo'q qilishga buyruq berilgan. Qadimiyatga e'tiqod qilganlari uchun yuzlab konfutsiy ta'limoti muxlislari, olimlar jismoniy yo'q qilingan. Butun Xitoy aholisi og'ir mehnatga duchor qilindi. Misli ko'rilmagan qurilish: 5 ming km. uzunlikdagi buyuk devorni bunyod qilishga kirishildi. Imperator saroyi va tog' ichida o'yilgan imperator sog'onasi qurilib, sog'onaga balandligi o'rtacha odam o'lchovida bo'lgan 6 ming jangchi haykallari joylashtirildi va Xitoyni butun hududi aholisi bu qurilishlarga zo'rlik bilan haydab kelindi. Imperator qo'shinni shimolga xunlarga qarshi va Yantszi daryosi va Janubiy Xitoy dengizi oralig'i havzasidagi mamlakatlarni ishg'ol qilishga yuborildi

### **1.3 Moxinjadaro va Xarappa madaniyatlari.**

Qadimgi Hindiston o'ziga xos geografik sharoit va tabiatiga ega bo'lgan. Mintaqadan ikki hududni ajratib ko'rsatish lozim. Shimol va Janub. Qadimgi aholi dravidlar deb, shuning uchun bu davr dravidlar jamiyati deb ataladi. Dravid jamiyati ijtimoiy-siyosiy hayoti va madaniyati shumer-akkad jamiyatiga yaqin. Shu jihatdan ham olimlar ushbu sivilizatsiya asosida shakllangan deb hisoblaydilar. Hindistonning dastlabki sivilizatsiya markazlari – Moxinjo-Doro va Xarappa shaharlaridir. Shaharlar to'g'ri va keng ko'chalar, uylar esa pishiq g'ishtdan 2 etaj shaklida qurilgan. Moxinjo-Dorodan hatto vodoprovod va kanalizatsiya qoldiqlari topilgan. Bu yer yirik savdo va hunarmandchilik markazlari hisoblangan. Saroy qoldiqlari bu yerda davlat va podsho qarorgohi bo'lganligini ko'rsatadi. Arxeologik topilmalar bu yerda jamiyat qaror topganligini isbotlaydi.

Miloddan avvalgi II ming yillik o'rtalarida oriy qabilalarini bostirib kirishi oqibatida qadimgi jamiyat inqirozga yuz tutadi. Miloddan avvalgi I ming yillikda Hindistonda Maxadka, Malla, Koshala kabi davlatlar qaror topadi. Mazkur davrda jamiyatda tengsizlikni qaror topishi dinga o'z ta'sirini ko'rsatdi. Broxmanizm dini paydo bo'ldi. Dinning muqaddas kitobi – Veda bo'lib, unda jamiyatdagi tengsizlik aks etadi. Unga ko'ra jamiyat pastalarga tabaqalarga bo'linadi. 1) Braxmanlar – koxinlar, jangchilar-kshatriyalar, vayshi-dehqon, xunarmand, shudra-xizmatkorlar. Shuningdek, ushbu to'rtta tabaqaga mansub bo'lmagan "chandallar" ham mavjud, ular hazar qilingan kishilarga nisbatan rivojiga ham ta'sir ko'rsatadi. Va miloddan avvalgi VI asrda Buddizm dinining paydo bo'lishiga zamin yaratdi. Din asoschisi – sidxartxa Bautalla hisoblanadi. To'kin-sochinchilikda katta bo'lgan shahzoda tasodifan kasalga duch keladi. Keyin jamiyatdagilar ahvolini tushungib yetgan shahzoda saroyni tark etadi va yangi ta'limotni yaratdi. Sidxartxa o'z ta'limotining asosiy qoidalarini "To'rt oliy haqiqat" nomi bilan bayon etadi. U Hindistonda birinchi monaxlik jamoasini tashkil etgan. Buddaviylik dinining muqaddas kitobi – "Tripitana" (uch savat donolik) deb ataladi. Budda o'z ta'limotini uch savatga joylashtirgan. Ularning har biriga alohida nom berilgan: 1) vinoyanitana (ahloqiy meyorlar); 2) Suttopitana (Duolar); 3) Abidxommanatana (Diniy-falsafiy masalalar bayoni).

Podsho Ashona hukmronligi davrida Buddha dini Hindistonda davlat diniga aylandi. Keyinchalik ikki oqimga: xinoyana va Maxayanaga bo'linib ketadi. Moxayananing hozirgi davrdagi eng muhim qo'rinishi – lamalikdir.

Kushon davrida Buddha dini O'rta Osiyoga ham keng yoyiladi. IV asr boshida Hindistonda Guptalar davlati vujudga keladi. Guptalar eftaliylar zarbasi bilan parchalanib ketgan. Hindiston sivilizatsiyasining mazkur davri –kuchsiz davlat, kuchli jamiyat tarzida namoyon bo'ladi. Mayda knyazliklarga roja va Maxorojalar boshchilik qiladi. Rojalarning gubernatorlardan farqi ularga hokimiyat meros bo'lib o'tardi, hamda o'z avtonomligini saqlab qolgan edi. Jamiyatda qishloq jamoalari muhim rol o'ynagan. Jamoada kastachilik saqlab qolingan va begonaga yer sotilmagan. Jamoa yerni ijaraga, meros va yaqin kishisiga sotish imkoniyati berilgan. Unga kechgacha boshchilik qilar, albatta yuqori xastalarni haq-huquqi cheklanmagan edi. Shunday qilib qishloq jamoalar avtomatizm darajasidagi boshqaruv saqlangan. Yoki jamoalar davlat ichidagi davlat sifatida qoralardi.

#### **1.4 Hindistondagi din va e'tiqodlar rang-barangligi.**

Qadimgi hindlar mantiq, til falsafasida katta yutuqlarga erishdilar. Matematika, astronomiya fanlari bo'yicha V asrda mashhur olim Ar'iyabxattaxa harakatning nisbiyligi asosida yerning o'z o'qi atrofida aylanishi va uning quyosh atrofida aylanishini faraz qiladi. Matematikada nolni kiritilishi, arab raqamlari deb aytiladigan raqamlar Hindistondan kelib chiqdi. Eramizning II asrlarida turli adabiy janrlar mavjud bo'lgan. Bu davrda mashhur dramaturg Shakun Kalidasa ijod qiladi. «Panchatatra» deb atalgan kitobda masallar to'planadi, uning arabcha tarjimasi «Kalila va Dimna» deb ataladi.

Maurilar davridan so'ng, g'isht va toshdan qurilishda keng foydalaniladi. Hozirgacha saqlangan obidalar g'arbiy Hindistondagi budda ibodatxonalari diqqatga sazovor. Yer ustidagi ibodatxonalardan biri Sanchida bunyod qilingan. Sanchida tepalik ustida ulkan budda ibodatxonasi qurilgan. Yana bir noyob san'at yodgorligi Ashoki yozuvlari bitilgan tosh ustunlardir. Maurilardan so'ng, haykaltaroshlikning mahalliy maktablari vujudga keladi. Ulardan eng mashhurlari shimoliy g'arbiy Hindistondagi Gandxara, shimoliy Hindistonning markaziy qismidagi Madxura va Dekan viloyatidagi maktablardir. Eramizning birinchi asridan Gandxara maktabi ellin va Rim madaniyati ta'siri ostida shakllangan. Gandxara uslubi kushonlar davrida markaziy va sharqiy Osiyoning budda madaniyatiga ta'sir qildi. Madxura va Dekan maktablari Hind tasviriy san'ati an'analari bilan ko'proq bog'langan. Ana shu maktablar asosida o'rta asrlar hind va janubiy sharqiy Osiyo mamlakatlari madaniyati shakllandi.

Qadimgi Hind adabiyoti asarlarining katta qismi veda, epik va budda adabiyotlari an'anaviy janrlarga tegishli bo'lib, asrlar davomida og'zaki shaklda yashab keldi. Aynan muqaddas matnlarni eslab qolish, uzatish va talqin qilish, lingvistika, falsafa va mantiq kabi fanlarning rivojiga sabab bo'ldi. Janubiy Osiyoda maurilardan so'ng, turli davlatlarni gullab-yashnashi dunyoviy adabiyot-drama, poyeziya va proza, me'morchilik hamda tasviriy san'atning noyob yodgorliklarni yaratilishiga sabab bo'ldi. I ming yillikning o'rtalarida (shimoliy

Hindiston Guptalar davri) qadimgi janubiy Osiyoda madaniyat taraqqiyotining yakuni bo'ldi.

#### 4-мавзу: Қадимги Юнонистон цивилизациясида Крит-микен маданияти. Ахей маданияти.

##### **РЕЖА:**

4.1 Қадимги Крит ва Микен жамияти.

4.2 Эллада маданияти. Илмий билимлар ва дин ривожланиши.

4.3 Рим цивилизациясининг ўзига хослиги.

4.4 Республика ва империяча бошқарув.

**Tayanch iboralar:** *Krit-miken madaniyati. Axei madaniyati. Doriylar. Buyuk yunon mustamlakachiligi. Klassik Yunoniston. Yunon jamiyati – polis. Polislardagi jamiyat. Polisning iqtisodiy hayoti dolzarb jihatlari. Yunon sivilizatsiyasi rivojining ikki markazi. Polisning rivojlanish yo'li muammolari. Rim jamiyatining diniy tangligi. Saltanat: sivilizatsiyasining gullab yashnashi va zaiflashuvi muammolari. Saltanat boshqarish manbalari. Saltanatning "Oltin asri". Avgustdan keyingi saltanat. Saltanat davri madaniyati va san'ati. Rim huquqi. Rim sivilizatsiyasi qulashining sabablari.*

#### 4.1 Qadimgi Krit va Miken jamiyati.

Qadimgi Yunoniston iqlimi o'ziga xos sanaladi. Daryolar yo'q, unumdor yerlar kam bo'lgan. Biroq, dengizning mavjud bo'lishi yunonlar uchun qulay imkoniyatlar yaratib bergan. Yangi yerlarni egallash, hayot uchun kurash yunon sivilizatsiyasining rivojlanishi uchun qulay imkoniyatlar yaratdi.

Dastlabki sivilizatsiya o'chog'i Krit orolida miloddan avvalgi III-II ming yillikda vujudga keladi. Bu Minoi sivilizatsiyasi deb ham ataladi. Mil. avv. XV asrda tabiiy ofatlar krit-miken jamiyatini yo'q qildi. Uning o'rniga Axei sivilizatsiyasi keladi. Uning rivoji XV-XIII asrlarga to'g'ri keladi. Biroq, XIII-XII asrlarda to'satdan inqirozga uchradi. Buning sababi sifatida doriylar istilosini ko'rsatishadi. Krit va Axei sivilizatsiyasi boshlang'ich etap sifatida keyingi yunon sivilizatsiyasi rivojlanishi uchun asosiy turtki bo'ladi.

Miloddan avvalgi VIII-VI asrlarda yunonlar tarixida buyuk koloniyalar davri hisoblanadi. Bunga sabab erkin yunonlar orasida yerlarni kamligi, kambag'allashuv, ishsizlik edi. Kolonistlar oldida tabiat injiqligi turardi. Shu jihatdan o'z ishini ustasi, epchil, mehnatsevar, odamlar yetishib chiqdi. Miloddan avvalgi IV asrda A.Makedonskiy davlati ellin sivilizatsiyasi sifatida keyinchalik yunon sivilizatsiyasini nihoyasiga yetkazadi.

Yunoniston sivilizatsiyasining o'ziga xosligi – polis jamiyatini mavjudligi deb hisoblash zarur. U davlatning siyosiy hayoti, qadriyatlar tizim, adabiyot va san'at va falsafaga katta ta'sir ko'rsatgan. Jamoani a'zosi bo'lishi uchun erkin yunon bo'lishi hamda xususiy mulkka ega bo'lishi shart edi. Chunki, ular erkin mulkdor bo'lishi bilan birga davlat ishlarida ham qatnasha olar edi. Shu jihatdan yunon polislari fuqarolik jamoasi deb ham atalgan. Demak, Yunonistonda davlat jamoasidan yetishib chiqqan Polislarda doimo fuqarolik huquqi shakllanib borgan. Polislarda faqat ichki hayot, balki tashqi siyosat mavjud bo'lib o'z armiyasiga ham ega bo'lgan. Polislar mil.avv.VI-V asrlarda o'zining rivojiga chiqqan. Yunonistonda markazlashish jarayoniga harakat bo'lmagan. Faqatgina forslar bilan urush jarayonida birlashishga harakat bo'lgan. Shu jihatdan, bu yerda ikki sivilizatsiya markazi – Afina va Sparta vujudga keldi.

Afina siyosiy hayotida demokratiya sari harakat bo'lgan. Jumladan mil.avv. 594 yili Solon islohoti amalga oshirilib, jamiyatda fuqaro va demosni yaqinlashtiradi. Endi demos ham barcha huquqqa ega bo'ldi. Keyinchalik mil.avv. V asrda Eftalit va Perinlar o'z faoliyati bilan demokratiyani yanada mustahkamlaydi.

Spartada arxaik jamiyat qoldiqlari mavjud bo'lib, jamiyatda xususiy mulkka ruxsat berilmagan (yerga egalik). Qullar ham davlatga tegishli sanalgan. Erkin aholi orasida "Tenglik prinsipi" hukmron bo'lgan.

Yunon fors urushlaridan Afina va Sparta qudratli davlatga aylandi. Ikkala davlat ham Yunonistonda yagona hukmronlik uchun kurash boshladi. Biroq, urush ikkala tomonni zaiflashtirdi. A.Toynbi fikricha, bu jihat qadimgi yunon sivilizatsiyasining inqirozi edi. Yunon sivilizatsiyasining so'nggi bosqichi sifatida ellin davri A.Makedonskiy davlatini aytib o'tish lozim,

#### **4.2 Ellada madaniyati. Ilmiy bilimlar va din rivoji.**

Ellin madaniyatining umumiy belgilari. Ellinlar dunyoviy madaniyati murakkab va xilma-xil edi. U yunon madaniyatining hamda Yaqin Sharq mamlakatlari madaniyatining uyg'unlashuvidan iborat bo'lgan.

Ellinizm davrida ayrim mamlakatlar o'rtasida o'zaro aloqalar kuchayib, uzoq harbiy yurishlar savdo maqsadidagi sayohatlar, Yaqin Sharq mamlakatlariga ko'chib borib joylashish qadimgi yunon va makedonlarning bilim doirasini kengaytirdi: ular Sharq madaniyati bilan avvalgiga nisbatan ko'proq tanishadilar. Ikkinchi tomondan, Iskandar Zulqarnayn (Aleksandr Makedonskiy) istilo qilgan mamlakatlarning hamda ellinlar olamiga tutash o'lka halqi yunon madaniyati bilan bevosita tanishish imkoniyatiga ega bo'ldi.

Ellinlar madaniyati yunoncha ko‘rinish olgan edi. Yunonlar, makedonlar, ellinlashgan mahalliy yer va savdo aristokratiyasi va kohinlardan tarkib topgan hukmron sinf orasida umumyunon tili (koyne) keng tarqalgan. Koyne bilan birga eski yunon lahjalarida ham so‘zlashganlar. Mahalliy tillar misr – demotik tili bo‘lib, Selevkiylar davriga kelib ularning soni ko‘paydi. Miloddan avvalgi IV asr oxirlariga kelib yunonlar orasidagi yangicha dunyoqarash – kosmopolitiz yuzaga keldi. U yunoncha “kosmopolites” - “dunyo fuqarosi” ma’nosini bildirgan. O‘tgan klassik davrda har bir yunon o‘zini shahar fuqarosi hisoblagan bo‘lsa, endilikda ellin polislari keng tarqaldi. Shu bois, ellinlar dunyosining keng hududlarida yoyilib ketgan yunonlar – askar, hunarmand va savdogarlar o‘z qarashlari polis doirasidan chekkaga chiqib, tobora kengayib bordi. Natijada ellinlar dunyosi kosmopolitizm muhim g‘oyaga aylandi. Bu g‘oya esa ellinlashgan ekspluatatorlar mavqeini mustahkamlangan. Ellinlarga xos bo‘lgan hodisalar bilan birga butun ellinizm madaniyati Sharqda keng tarqaldi.

**Qurolsozlik va arxitektura.** Quldorlik jamiyati sharoitida qurolsozlikning yanada rivojlanishi ellin madaniyatining muhim belgisi bo‘ldi. Sharq va yunon tajribasining o‘zaro ta’siri mehnat quollarining va hunarmandchilik usullarining hamda odam va hayvon kuchi bilan harakatga keltiriladigan sodda mexanizmlarning takomillashuviga yordamlashgan. Masalan: ulug‘ matematik va mexanik olim Arximed (taxminan miloddan avvalgi 287 – 212 yillar) ixtiro qilgan richaglar, charxpalaklar har tomonlama qulay bo‘lib, bu mexanizmlar harbiy ishda va binokorlik sohasida katta yutuqlar keltirgan. Bu davrda manjanaqlar va toshotar to‘plar qo‘llanilgan. Manjanaqlar ikki o‘rim egiluvchan arqon yordamida o‘q va tosh, toshotar to‘plar yordamida ulkan toshlar uloqtirilgan. Qal’alarni qamal qilish uchun taranlar bilan birga, g‘ildiraklarga o‘rnatilgan harakatlanuvchi maxsus minora – gelpola (shahar olar) lar ham ishlatilgan. Bu moslamalar dushman shahri qal’alari va devorlari baravarida yoki u ulardan baland qilib yasalgan. Harakatlanuvchi minora (gelepola) ichida askarlar, zahira o‘qlari va toshlari bilan otuvchi to‘plari joylashgan. Minora ko‘p odamlar kuchi bilan bir joydan ikkinchi joyga ko‘chirilgan.

Dengiz kemalari ilgariga nisbatan, kattaroq qilib yasala boshlagan. Bu kemalarning besh va undan ham ko‘proq qator eshkakli bo‘lganlar. Savdo floti kemalari takomillashtirilgan. Ular ko‘pincha ochiq dengizda suzar, hatto okeanga ham chiqar edilar. Miloddan avvalgi II asrda yunon Gippal Hindistonga kema safari chog‘ida ilk bor musson shamolidan foydalangan va shu bilan okeanda ma’lum tomonga esadigan shamol yordamida suzishni kashf etgan. Dengizchilikning rivojlanishi bilan mukammal mayoqlar, port va savdo sohillari hamda ular yonida omborlar va boshqa yordamchi binolar qurilgan. Kichik Faros orolidagi mayoq barchaga ma’lum bo‘lib, u Misrning Iskandariya portiga boradigan yo‘lni ko‘rsatib turgan.

Ellin arxitekturasida ko‘pchilik foydalanishiga mo‘ljallangan binolar ko‘p edi. Agar klassik Yunonistonning arxitekturasi uchun xos asosiy bino peripter - ibodatxona bo‘lsa, endilikda asosiy bino peristal – xususiy uy bo‘lib qoldi. Shaharlar odatda loyiha asosida qurilib, o‘zaro kesishadigan to‘g‘ri burchakli tik ko‘chalari

bo'lgan. Bundan tashqari, suv tegirmonlaridan foydalanilgan. Ellin davrida konchilik ishi eng qoloq hisoblanib, shaxtalarda asosan, qo'l mehnatidan foydalanilgan.

**Fan va falsafa.** Yunonistonda va qadimgi Sharqda to'plangan bilimlarning o'zaro ta'siri, texnika yutuqlari va ellinlar dunyosi bepayon hududlarini amaliy o'zlashtirish bilan uyg'unlashuvi fanlar rivojlanishiga ko'maklashdi. Poytaxtlarda ilmiy markaz va kutubxonalar qad ko'tardi. Misrda Iskandariya, Orontda Peram, Annshoxi ellinlar dunyosining ilmiy va madaniy markazlari hisoblangan.

Iskandariyada Ptolemeylar homiyligida g'oyat katta kutubxonaga asos solingan. U yerda ellinlar davrining so'nggi yillari 700 mingga yaqin papirus o'rami mavjud bo'lgan. Bu kutubxonada yunon-sharq donishmandlarining o'sha zamonga qadar to'plangan asarlari saqlangan. Saroy yonida kutubxonadan tashqari, Museyon - ilmiy muassasa ham tashkil qilinib, unda olimlar uchun yotoqxona bo'lgan. Bu ilmiy muassasa muzalar himoyasiga topshirilgan. Ellin davrida ilm - fan alohida sohaga bo'linib, tizimlashtirilgan. Aristotelning shogirdi va muxlislari – peripatetiklar tarixi tizimlashtirish jarayoniga yaqqol misol bo'la oladi. Peripatetiklar falsafiy maktabiga Aristotelning shogirdi Geofrasta (miloddan avvalgi 370 - 285 yillar) rahbarlik qilgan. U nafaqat faylasuf, balki ko'pqirrali olim ham edi. U "botanikaning otasi" deb nom chiqargan. Geofrastadan keyin maktabni Straton boshqardi. Qadimda u "fizik" laqabini olgan. Straton fizik hodisalarni tadqiq qilishda eksperiment usullarini qo'llagan. Uning shogirdlari orasida Aristarx (miloddan avvalgi 310-230 yillar) ajralib turgan. U yer va boshqa sayyoralar, Quyosh tizimining geliotsentrik (ya'ni sayyoralar Quyosh atrofida aylanishi) to'g'risida farazni ilgari surgan. Iskandariyada esa Yevklid (miloddan avvalgi III asr) geometriyaning dastlabki poydevoriga asos soladi. U mavjud matematik, geometrik negizlarni asoslab bergan. Shuningdek, Iskandariyada Museyon kutubxonasining mudiri kirenalik Eratosfen (miloddan avvalgi 275 - 208 yillar) ham faoliyat olib bordi. U geografiya, astronomiya va matematika fanlari bilan chuqur shug'ullangan. Olim yer shari aylanasing uzunligini katta aniqlik bilan hisoblab chiqdi va fizik-matematik geografiya asoslarini yaratdi. Eratosfen birinchi bo'lib "geografiya" terminini ishlatgan.

Miloddan avvalgi II asrda nineyalik atoqli astronom va geograf Gipparx yashab o'tgan. U bir qancha astronomik asboblarni takomillashtirgan va ixtiro qilgan. Kecha - kunduzning baravarligini aniqlagan. Gipparx harakatsiz yulduzlar katalogini tuzgan. Bu katalogdan 900 ga yaqin yoritgich o'rin olgan. Gipparx Yerdan Oygacha bo'lgan masofani, Yer va Quyosh massasini aniqlagan va ekvatorni 360 ga taqsimlab uzunlik va kenglik tushunchasini joriy qilgan.

Miloddan avvalgi III asrda tibbiyot ancha taraqqiy etdi. Yunon tibbiyot nazariyasi va praktikasi qadimgi Sharq tajribasi bilan qo'shilib, Iskandariya tibbiyot maktabi sifatida ifodasini topdi. Bu maktab asoschisi Gerofil (miloddan avvalgi III asrning birinchi yarmi) hisoblanadi. U insonning tasviriy anatomiyasini yaratgan, diagnoz metodlarini aniqlagan, dori-darmonga g'oyat katta ahamiyat bergan. Keyinchalik uning ishini Erasistrat davom ettirgan.

Ellin davrida ikki yangi falsafiy tizim – stoiklar va epikurchilar paydo bo'ldi va rivojlandi. Stoik falsafasining asoschisi Kipr orolida tug'ilib o'sgan Zanon (miloddan avvalgi 336 - 264 yillar) edi. U Afinaning eng gavjum joyi – naqshin



pehayvon – stoya ostida va'z aytib, tinglovchilarga ta'lim bergan. Stoitsizm yunon va sharq nazariyalarining ma'lum darajadagi sintezidan iborat bo'lgan. Stoiklar hamma narsa, shu jumladan, fikr, so'z, olov kabilarni ham jism deb atardilar. Ular olamni uzluksiz rivojlanib turgan olov deb hisoblaganlar. Xudo tabiatning o'zida jo bo'lib, tabiatning ijodiy ibtidosi bilan bir qilib ko'rsatilgan. Ularning ta'limotiga ko'ra, koinot olovdan tug'ilgan va kelajakda uni olov yutadi, keyin esa yana paydo bo'ladi.

Ellin falsafiy maktabining yana bir asoschisi – Epikur (miloddan avvalgi 341 - 272 yillar) Zenonga qarama - qarshi o'laroq materialistik dunyoqarashni yoqlab chiqqan. Epikur ta'limotiga ko'ra, odamlar obyektiv suratda tashqi olamni sezgilari orqali biladilar. Sezgilarning jamlanishi asosida – umumiy tushuncha hosil bo'ladi.

Ellin davrida paydo bo'lib, rivojlangan falsafiy maktablarning o'ziga xos xususiyatlari shunda ediki, ular qullarga ham insoniy fazilatlar, hatto ularda oliy axloq sifatleri va donishmandlik mavjud ekanligini aytib o'tganlar.

**Adabiyot va san'at.** Ellin davrida fan sifatida adabiyotshunoslikning kurtaklari - filologik tanqid yuzaga kelgan. Filologlar mantiqiy asosda yunon grammatikasini ishlab chiqqanlar. Iskandariya Museyoni yunon adabiyotining muhim markazi bo'lib qolgan. Iskandariya shoirlarining yetakchisi Kallimax (miloddan avvalgi 310 – 240 yillar) Museyon kutubxonasi mudiri va taxt vorisi hisoblangan. U kutubxonada filologik kataloglar tuzgan va olim filolog sifatida faoliyat yurgizgan. Kallimax – mifologiya, tarix, adabiy mavzularda kichik – kichik she'r va poemalar yozgan. Kallimaxning zamondoshi Feokrit nomi tarixda lirik – dramatik poema – idiliyalar muallifi sifatida qoldi. Bu asarlarda u qishloq va shahar hayotining osoyishta manzaralarini yozgan. Ellin davrida yangi attika komediyasi muhim o'rin tutgan. Uning vakillaridan biri afinalik Menandr (miloddan avvalgi 342-292 yillar). Bu komediyalar Misrdan topilgan papirus qog'ozlarida bitilgan. Memandr komediyalarining syujeti oilaviy, maishiy mavzulardan iborat bo'lgan.

Ellin davrida tasviriy san'at ham ajoyib yutuqlarga erishdi. Bu davrda yunon va Sharq an'analari uyg'unligi yaratilgan ko'pgina me'morchilik yodgorliklarida mujassam bo'ldi. Haykaltaroshlik san'ati bu davrda ancha ravnaq topgan, ammo mazmunan klassik davr an'alaridan farq qilardi. Ideal ma'buda va qahramonlar umumlashtirilgan haykallari o'rnini asli kabi ishlangan va tasvirlangan shaxs individualligini yaqqol ko'rsatadigan portretlarga keng yo'l berilgan. Ellin davrining haykaltaroshlari yaratgan yakka va guruh haykallarida jismoniy va ruhiy azob, kurash, g'alaba, o'lim kabi sezgilar ifodalangan. Shu bilan bir qatorda haykaltaroshlikda dabdabali tematika mavjud bo'lib, u ellin monarxlarning saroylari soyasida namoyon bo'lardi. Afina va Iskandariyada Praksitel, Pegram, Rodos maktablari haykaltaroshlikning yorqin namunalarini yaratdilar.

Ellin davrining oxiriga borib, haykaltaroshlik mavzusi o'zgarib, asarlarda dahshatli syujetlar va yasamalik namoyon bo'la boshladi. Guruh tarzida ishlangan ikki ajoyib haykal: "Fornes buqasi" va "Laokoon" da shu holni ko'rish mumkin.

Ellin davrining ikkinchi yarmida haykaltaroshlikda ideallashtirilgan klassik shakllariga qaytish kuzatildi. Miloslik Afrodita haykali bu maktabning ajoyib

yodgorligi bo‘lib, unda ma‘budlar figuralari klassik shaklda ideallashtirib ko‘rsatilgan.

Tosh o‘ymakorlik san‘ati katta muvaffaqiyatlarga erishgan. “Kameo Gonzago” asari uning ajoyib namunasi bo‘lib, unda shoh Ptolemey va malika Arsinoyaning boshi yon tomondan tasvirlangan. Adabiy manbalarga ko‘ra, ellin rassomligida ham jiddiy asarlar yaratilgan, lekin mum bo‘yoqlardan barpo bo‘lgan kartina va freskalardan deyarli saqlanib qolmagan.

#### **4.1 Rim sivilizatsiyasining o‘ziga xosligi.**

Rim sivilizatsiyasi ko‘p tomondan yunon jamiyati davomi yoki antik sivilizatsiyaning oxirgi bosqichi deb qaraladi. Biroq uning o‘ziga xos xususiyatlari bor edi. Rimga faqat qulay geografik sharoit, balki ular yunonlar, karfagenliklar, etrusklar bilan yonma-yonligi hamda ularning yutuqlarini yaxshi o‘zlashtira olganligida deb hisoblash lozim.

Miloddan avvalgi III asrda Rimda fuqarolik jamiyati shakllanib bo‘ldi. Bu esa ichki hayot – patriksiylik tizimini qaror topilishini nihoyasiga yetkazadi. Rim fuqarosi majburiyatlari aniq belgilangan edi: avvalo, jamiyat oldidagi burch, so‘ngra oila oldidagi hamda o‘zligi uchun qayg‘urishdir. Rim garchi aristokratik resublika hisoblanadi. Biroq ularning vakolati cheksiz bo‘lmagan. Turli organlar bir-birini nazorat qilishi mumkin bo‘lgan. Albatta, rimdagi individualizm faqat yunon madaniyatining ta‘siri emas, balki jamiyatdagi tengsizlikni mahsuli ham deb qarash lozim.

Rimda imperiyani paydo bo‘lishi sivilizatsiyani tugashimi? Bir qaraganda imperiya qudratli bo‘lib, sivilizatsiya to‘xtamagandek tuyuladi. Biroq, yakunida Rim sivilizatsiyasi qator kuchli zarbalar qurboniga aylandi. Avvalo, ijtimoiy-iqtisodiy va madaniy jarayonlarda, so‘ngra varvarlar hujumidir. Rim buyuk Ko‘chishdagi yosh xalqlar yo‘lining kelishgan joyiga aylandi.

Tadrijiy: merosiylilik asosida rivojlangan sivilizatsiya jamiyati to‘xtab qoldi. Biroq, bu inqiroz G‘arbiy Yevropa sivilizatsiyasining asosi – bosh manbaiga aylanib qoldi.

#### **4.2 Respublika va imperiyacha boshqaruv.**

Er. avv. VI asrda etrusk istilolari urug‘ jamoasining yemirilish jarayoni, sinfiy jamiyat va Rim davlatchiligi shakllanishini tezlashtirdi. Etrusklar Rimda ilk yunon tiraniyasiga o‘xshash monarxiya rejimini tashkil etdilar. Uning o‘rniga Rimda er. avv. 509-yil ilk respublika tuzumi o‘rnatildi.

Rim tarixchilari, respublika boshlanishini er. avv. 509-yil kelib chiqishi etrusk bo‘lgan so‘nggi Rim podshosi Tarkviniy Mag‘urning Rimdan haydalishi bilan belgilaydilar. Erkinlik tarafdorlari, senat hokimiyati himoyachilari Yuniy Brut boshchiligida monarxiyani aristokratik respublika bilan almashtirdilar. Respublika tuzumi o‘rnatilishi bilan oliy hokimiyat bir yil muddatga saylanadigan ikki konsul qo‘liga o‘tdi. Dastlab ular pretor (oldinda yuruvchilar) deb atalar edi.

Rim respublikasi magistraturasi birdaniga emas, asta-sekin shakllandi. Farazlarga ko`ra, respublikaning birinchi yillarida ijroiya hokimiyatning boshida bir oliy magistrat-pretor bo`lib, unga o`rinbosari-kvestor yordam bergan. Plebeylarning Muqaddas toqqa birinchi chiqib ketishlaridan so`ng, xalq tribunlari va plebey edillari, ularning yordamchilari lavozimlari joriy qilindi. Ammo ijroiya hokimiyatga pretorning yagona rahbarligi va u tomonidan hokimiyatni bosib olinish imkoniyati mavjudligi xavfi tug`ildi. Shuning uchun er. avv. V asr o`rtalarida bir oliy magistrat o`rniga ikkitasi saylanadigan bo`ldi. Ular bir xil hokimiyatdan foydalandilar va birgalikda boshqardilar. Ular bir-birlari bilan maslahatlashishlari lozim edi. Shuning uchun ular konsullar (consulo-maslahatlashaman so`zidan olingan) deb ataldilar. Lisiniy va Sekst qonuni bo`yicha er. avv. 367-yildan konsullardan biri plebeylardan saylana boshladi. Oliy magistratlar konsullar, sensorlar va pretorlar edi.

Konsullarni senturiy yig`inlarda patriitsiyalar ichidan saylar edilar. Konsullar roziligisiz senat komisiyalari to`plana olmas edi. O`zlari esa, o`z majburiyat vazifalarini bajarish davrida har qanday sud javobgarligidan ozod edilar. Konsullar urush vaqtida qo`shin qo`mondoni vazifasini bajarganlar. Senat va komisiyalarni chaqirar edilar hamda qonunchilik tashabbusiga ega edilar. Konsullar hokimiyati faqat biri ikkinchisining qaroriga veto (ta`qiq) qo`yishi bilangina cheklangan edi. Amaliy hayotda esa, konsullar patriitsiyalar va ularning oliy organi-senatning siyosiy manfaatlari bilan hisoblashishga majbur edilar. Dastlabki kunlardan oq konsullardan tashqari, shahar ishlarida kvestorlar muhim o`rin tutdilar. Ular sudda ishtirok etar, xazinani boshqarishda qatnashar edilar. Ilk davrda ular konsullarning yordamchilari edi. Er. avv. V asr o`rtalaridan kvestorlarni komisiyalarda saylaydigan bo`ldilar. Shu vaqtdan kvestorlar mustaqil bo`ldilar. Ular davlatning moliyaviy ishlari bilan shug`ullanar edilar. Kvestorlar arxivni boshqardilar, harbiy yurishlar davrida konsullarga hamrohlik qilib, qo`shin xazinasini boshqarar edilar.

Yer. avv. 443-yildan boshlab senturiy komisiyalarida faqat patriitsiyalar ichidan ikki sensor saylanadigan bo`ldi. Ular 5 yilda bir marta 18 oy muddatga saylanar edi. Sensorlar sobiq konsullardan saylangan. Ular Rim fuqarolarini mulk toifalariga kiritib, senatorlar tarkibini tekshirib, uning yangi ro`yxatini tuzishlari lozim edi.

Ilk respublika davrida favqulodda hokimiyat tuzilmasi mavjud edi: oraliqdagi podsho, diktator o`z o`rinbosari, otliqlar qism boshlig`i bilan birgalikda senatda favqulodda vaziyatlarda yarim yil muddatga senatda saylanar edi. Er. avv. 507-yilda Rim tarixida ilk bor favqulodda vakolatlar berilgan mansabdor shaxs-diktator saylandi. Diktator hokimiyati podsho hokimiyatiga o`xshash edi. Diktatorni rimliklar davlat uchun favqulodda xavf tug`ilib qolgan paytda yoki o`ta xavfli vaziyat yuzaga kelgan paytda, yagona boshliqqa ehtiyoj bo`lgandagina saylar edilar. Diktatorni rasman konsullar, amalda esa, senat saylar edi. Diktator hokimiyati cheklanmagan edi. U ikki konsul hokimiyati vakolatiga ega bo`lib, uning hokimiyat muddati 6 oygacha edi. Unga konsullar kabi 12 liktor emas, balki 24 liktor hamrohlik qilar edi. 24 liktor uning hokimiyatini belgisi bo`lgan.

Rim respublikasi aristokratik xarakterda edi. Qonunchilik tashabbusiga ega bo`lmagan senturiy yig`ilishlarini jamiyatning patriitsiy qatlamlarini vakili bo`lgan konsul chaqirishi mumkin edi. Bu komisiyalarning biror-bir qarori "patres"-senat

tomonidan tasdiqlanmasa, kuchga kirmas edi. Er. avv. 471-yildan kuriya va senturiy yig`inlari namunasidagi plebey yig`inlari chaqirila boshlandi. Plebey yig`inlarida qabul qilingan qarorlar-“plebitsit” faqat plebeylar uchun majburiy edi.

Rim respublikasida oliy davlat organi-xalq yig`ini hisoblangan. Xalq yig`ini qonunlarni qabul qilish va bekor qilish, urush e`lon qilish va sulh tuzish, oliy mansabdor shaxslar-magistrat (magister-boshliq)larni saylar edi. Shu bilan birga, u oliy sud tashkiloti edi.

Rim xalq yig`inlarini demokratik mohiyati va ularning keng vakolatiga qaramay, eng demokratik tribut komisiyalari ham aristokratiya qo`lida qurol bo`ldi. Xalq yig`ini faqat senatda muhokama qilingan, magistratlar kiritgan masalalarnigina muhokama qilari edi. Komisiyalar qonunchilik tashabbusi huquqiga ega emas edi.

Rimda xalq yig`inlari yoki komisiyalarning uch ko`rinishi mavjud edi. Serviy Tulliy islohotlarigacha kuriya komisiyalari mavjud edi. Serviy Tulliy qurolli xalq yig`ini-senturiy komisiyalarini kiritdi. Tezda ular kuriya komisiyalarini siqib chiqardi. Senturiy komisiyalari konsullar tomonidan Rim shahridan tashqaridagi Mars maydonida chaqirilar edi. Barcha Rim fuqarolari 193 senturiy, eng boy I toifa 98, jami senturiylarning yarmidan ko`p senturiy qo`yar edi. Ovoz berish senturiylar bo`yicha o`tkazilib, har bir senturiy bir ovozga ega edi. Ovoz berish qat`iy qabul qilingan tartibda: dastlab I toifa senturiylari, keyin II, III va h. k. ovoz berar edi. Agar taklif qilinayotgan masala bo`yicha senturiylar ovozining 50% idan ko`proq ovozi berilsa, ovoz berish to`xtatilib, taklif qonun kuchiga kirar edi. Bunday ovoz berish tartibi bo`yicha barcha masalalarni Rim fuqarolarini boy qismi bo`lgan I toifaning 98 senturiyalari hal qilari edi. Bu komisiyalarda pretorlar, konsullar va sensorlar saylanar edi. Ovoz berishning mulk senziga asoslanishi demokratik saylov tizimi tarafdorlarining noroziligiga uchradi. Er. avv. 241-yilda senturiy komisiyalari islohoti o`tkazildi. Endilikda har besh toifadan 70 senturiy qo`yiladigan bo`ldi. Ularga suvoriylarning 18 senturiylari, hunarmandlarning 4 senturiy va proletarlarning 1 senturiysi qo`shiladigan bo`ldi. Jami 370 senturiy (avvalgi 193 o`rniga). Patritsiyalar va plebeylarning kurashi jarayonida plebeylarning hududiy okrug-triblar bo`yicha tribut komisiyalari muhim ahamiyatga ega bo`ldi (Rim hududi hududiy jihatdan 4 shahar va 31 qishloq tribiga bo`lingan). Tribut komisiyalarida edillar, kvestorlar va plebey tribunlari saylanar edi.

Rim davlat hayotida 300 a`zodan tashkil topgan senat muhim o`rinni egallagan edi. U hukumat vazifasini amalga oshirdi. Er. avv. 287-yilgacha har qanday qonun loyihasi senatda muhokama qilinganidan keyingina xalq yig`ini muhokamasiga olib chiqilar edi. Xalq yig`inida qabul qilingan qonun faqat senat tasdiqlaganidan keyingina qonun kuchiga kirar edi. Shunday qilib, senat o`ziga kerakli yo`nalishda xalq yig`ini faoliyatiga rahbarlik va nazorat qilari edi. Senat tashqi siyosatga rahbarlik qilib, davlat moliyasining egasi edi. Mansabga saylangan magistratlar o`z faoliyati uchun senat oldida hisobot berar edilar, shu bilan senatning irodasiga tobe edilar. Er. avv. IV asrdan vakolatlari muddati tugagan oliy mansabdor magistratlar senat tarkibiga kirar edilar. Senatorlar ro`yxatini sensorlar tuzganlar. Ularni rahbari eng keksa va obro`li senator-princeps senatus (u munozara paytida birinchi bo`lib so`zlagan) edi. Senat ro`yxatida birinchi sensorlar, keyin konsullar, pretorlar turar

edi. Senat majlisini chaqirish huquqiga oliy magistratlar: diktator, konsullar, pretorlar haqli edi. Senatning qarori senatus konsulp (senatus konsultum) yoki dekret (dekretum-qaror) deyilar edi. Senat Rim oligarxiyasining tayanchi edi.

Rim konstitutsiyasi bo'yicha magistraturalar kollegial bo'lib (2 konsul, 2 ta pretor, 4 edil, 10 xalq tribuni, 2 sensor va 4 kvestor), bir yil ijro etilgan. Lavozimlar har yili qayta saylangan (faqat sensorlar bir yarim yil, diktatorlar yarim yil). Konsullar, pretorlar, kvestor va edillar lavozimga 1-martdan (yer. avv. 153-yilgacha, keyin 1-yanvardan), plebey tribunlari esa, 10-dekabrda lavozimga kirishar edilar.

### **Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. O'zbekiston Respublikasining "Davlat hokimiyati va boshqaruvi organlari faoliyatining ochiqligi to'g'risida"gi qonuni. –T 2014 [lex.uz](http://lex.uz)

2. O'zbekiston Respublikasining "Axborot erkinligi prinsiplari va kafolatlari to'g'risida"gi qonuni. /Axborot va axborotlashtirishga oid normativ-huquqiy hujjatlar to'plami. –T.: Adolat, 2008.

3. O'zbekiston Respublikasining "Ommaviy axborot vositalari to'g'risida"gi (yangi tahriri) qonuni. /Axborot va axborotlashtirishga oid normativ-huquqiy hujjatlar to'plami. –T.: Adolat, 2008.

4. O'zbekiston Respublikasining "Axborotlashtirish to'g'risida"gi qonuni. /Axborot va axborotlashtirishga oid normativ-huquqiy hujjatlar to'plami. –T.: Adolat, 2008.

5. Prays M. Mass-media i gosudarstvenniy suverenitet: Globalnaya informatsionnaya revolyusiya i yeyo vizov vlasti. – M. : In-t problem informatsionnogo prava, 2004.

6. "Beginning Android™ 4 Application Development", by Wei-Meng Lee, printed at Radha Offset, Delhi in 2015, pages – 533. Chapter-1. Getting started with Android programming

## IV. AMALIY MASHG‘ULOT MATERIALLARI

### 1-Amaliy mashg‘ulot:

L.Morgan sistemasida sivilizatsiya.

**Ishdan maqsad:** O‘quv jarayonida elektron ta‘lim tizimini qo‘llash va mediata‘limni amalda joriy etish ko‘nikmasiga ega bo‘lish.

Ushbu amaliy ish davomida quyidagilarni **bajarish lozim:**

Zamonaviy axborot jamiyatida mediata‘limning rivoji, zamonaviy axborot texnologiyalarining oliy ta‘lim jarayonida qo‘llanilishini o‘rganish.

Tayanch tushunchalar, har bir mavzuga oid atamalar mohiyatini bilish.

Mavzu yuzasidan so‘nggi yillarda fanda erishilgan yutuqlar haqida aniq tasavvurga ega bo‘lish.

### Ishni bajarish uchun namuna:

Tinglovchilar quyidagi **ko‘nikmalarga ega bo‘lishi zarur:**

Mediata‘lim tushunchasiga to‘liq ega bo‘lishi;

Mediapedagogika resurslarini bilishi;

Zamonaviy axborot jamiyatida mediata‘limning rivojini anglab yetish;

Zamonaviy axborot texnologiyalarining oliy ta‘lim jarayonida qo‘llanilishi haqida bilishi;

Mediata‘limni asosiy maqsadini tushunishi;

Mediata‘lim sohasida xalqaro va milliy tajribalar uyg‘unligini bilishi.

### Nazorat savollari:

1. Mediata‘lim va uning paydo bo‘lishi borasida nimalarni bilasiz?
2. Mediapedagogika resurslari deganda nimalarni tushunasiz?
3. Zamonaviy axborot jamiyatida mediata‘limning rivoji qanday amalga oshiriladi?
4. Zamonaviy axborot texnologiyalarining oliy ta‘lim jarayonida qo‘llanilishini izohlab bering.
5. Mediata‘limni asosiy maqsadlari nimalardan iborat?
6. Mediata‘lim sohasida qanday xalqaro va milliy tajribalarni bilasiz?
7. Axborot-kommunikatsiya texnologiyalari (AKT) qanday taraqqiyot omili bo‘lishi mumkin?
8. Jamiyat taraqqiyotida “elektron hukumat”ning o‘rni qanday?

### Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Bhuvan Garg. Teaching of history. India. New Delhi.: Rajat publications. 2010.
2. James B. M. Schick., Teaching History With a Computer: A Complete Guide for College Professors. USA. 2009.
3. Ispolzovaniye informatsionnix texnologiy v obuchenii istorii i

ObshestvoznaniY. – M., 2009.

4. Paxrutdinov SH. Global axborotlashgan jamiyat va mediata'limning zaruriyati. – T.: XTXQTMOMI. [www.ziyonet.uz](http://www.ziyonet.uz)

5. Paxrutdinov SH. Mediata'lim: taraqqiyot omili. –T.: XTXQTMOMI. [www.ziyonet.uz](http://www.ziyonet.uz)

6. Vendors of Learning Management and E-learning Products, By Don McIntosh, Ph.D.(2013). For Trimeritus eLearning Solutions, Inc. <http://www.trimeritus.com>, Updated Nov. 20, 2013

7. Elektron universitet. Masofaviy ta'lim texnologiyalari. Oliy ta'lim muassasalari uchun/ A.Parpiyev, A.Maraximov, R.Hamdamiyov, U.Begimkulov, M.Bekmuradov, N.Tayloqov. O'zME davlat ilmiy nashriyoti.-T.: 2008, 196 b.

8. «Elektronniye interaktivniye doski – noviye texnologii v obrazovani» (<http://www.smartboard.ru/>)..

## **2-Amaliy mashg'ulot:**

### **Hindiston madaniyatining an'anaviyligi dolzarb jihatlari.**

**Ishdan maqsad:** Moxendjo-daro va Xarappa sivilizatsiyasiga oid arxeologik va yozma manbaalar bilan tanishish, uning faoliyati bilan tanishib, shaxar-davlat boshqaruvi tizimini o'rganish.

Ushbu amaliy ish davomida quyidagilarni **bajarish lozim:**

Magadxa davlatida ijtimoiy-iqtisodiy tizimning ahamiyatini asoslab berilishi;

Uning mohiyati tushuntirib berilishi;

Tayanch tushunchalar, har bir mavzuga oid atamalar mazmunini bilishi;

Mavzu yuzasidan so'nggi yillarda fanda erishilgan yutuqlarni izohlab berilishi lozim.

### **Nazorat savollari:**

1. Qadimgi Maurya davlatining Hindiston sivilizatsiyasida tutgan o'rini izohlab berilgan.

2. Qadimgi Maurya davlatining Hindiston sivilizatsiyasida davlat boshqaruvi samaradorligini oshirish muammolari va ularni yechish yo'nalishlari nimalardan iborat?

3. Buddha davrida Hindiston sivilizatsiyasi.

4. Klassik davrida Hindiston sivilizatsiyasi.

5. Hindiston madaniyatining dunyo sivilizatsiyasida tutgan o'rini.

### **Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. Bhuvan Garg. Teaching of history. India. New Delhi.: Rajat publications. 2010.
2. James B. M. Schick., Teaching History With a Computer: A Complete Guide for College Professors. USA. 2009.
3. Ispolzovaniye informatsionnix texnologiy v obuchenii istorii i ObshestvoznaniY. – M., 2009.
4. Paxrutdinov SH. Global axborotlashgan jamiyat va mediata'limning zaruriyati. – T.: XTXQTMOMI. [www.ziyonet.uz](http://www.ziyonet.uz)
5. Paxrutdinov SH. Mediata'lim: taraqqiyot omili. –T.: XTXQTMOMI. [www.ziyonet.uz](http://www.ziyonet.uz)
6. Vendors of Learning Management and E-learning Products,By Don McIntosh, Ph.D.(2013). For Trimeritus eLearning Solutions, Inc. <http://www.trimeritus.com>, Updated Nov. 20, 2013
7. Elektron universitet. Masofaviy ta'lim texnologiyalari. Oliy ta'lim muassasalari uchun/ A.Parpiyev, A.Maraximov, R.Hamdamiyov, U.Begimkulov, M.Bekmuradov, N.Tayloqov. O'zME davlat ilmiy nashriyoti.-T.: 2008, 196 b.
8. «Elektronniye interaktivniye doski – noviye texnologii v obrazovani» (<http://www.smartboard.ru/>).

### **3-amaliy mashg'ulot: Rim sivilizatsiyasi qulashining sabablari.**

**Ishdan maqsad:** Rim sivilizatsiyasiga oid arxeologik va yozma manbaalar bilan tanishish, uning faoliyati bilan tanishib, shaxar-davlat boshqaruvi tizimini o'rganish.

Ushbu amaliy ish davomida quyidagilarni **bajarish lozim:**

Qadimgi Rim davlatida ijtimoiy-iqtisodiy tizimning ahamiyatini asoslab berilishi;

Uning mohiyati tushuntirib berishi;

Tayanch tushunchalar, har bir mavzuga oid atamalar mazmunini bilishi;

Mavzu yuzasidan so'nggi yillarda fanda erishilgan yutuqlarni izohlab berishi lozim.

### **Nazorat savollari:**

1. Qadimgi Rim madaniyatining dunyo sivilizatsiyasida tutgan o'rnini izohlab bering.

2. Qadimgi Rim davlatining dunyo sivilizatsiyasida davlat boshqaruvi samaradorligini oshirish muammolari va ularni yechish yo'nalishlari nimalardan iborat?

3. Respublika davrida Rim sivilizatsiyasi.

4. Imperiya davrida Rim sivilizatsiyasi.

5. Rim madaniyatining dunyo sivilizatsiyasida tutgan o'rnini.



### **Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. Bhuvan Garg. Teaching of history. India. New Delhi.: Rajat publications. 2010.
2. James B. M. Schick., Teaching History With a Computer: A Complete Guide for College Professors. USA. 2009.
3. Ispolzovaniye informatsionnix texnologiy v obuchenii istorii i ObshestvoznaniY. – M., 2009.
4. Paxrutdinov SH. Global axborotlashgan jamiyat va mediata'limning zaruriyati. – T.: XTXQTMOMI. [www.ziyonet.uz](http://www.ziyonet.uz)
5. Elektron universitet. Masofaviy ta'lim texnologiyalari. Oliy ta'lim muassasalari uchun/ A.Parpiyev, A.Maraximov, R.Hamdamiyov, U.Begimkulov, M.Bekmuradov, N.Tayloqov. O'zME davlat ilmiy nashriyoti.-T.: 2008, 196 b.
6. «Elektronniye interaktivniye doski – noviye texnologii v obrazovani» (<http://www.smartboard.ru/>)..

### **3-amaliy mashg'ulot:**

**Qadimgi davrda Rim jamiyati. Patritsiy va plebeylar. Rim fuqarolik jamiyati.**

**Ishdan maqsad:** Rim sivilizatsiyasiga oid arxeologik va yozma manbaalar bilan tanishish, uning faoliyati bilan tanishib, shaxar-davlat boshqaruvi tizimini o'rganish.

Ushbu amaliy ish davomida quyidagilarni **bajarish lozim:**

Rim imperiyasida ijtimoiy-iqtisodiy tizimning ahamiyatini asoslab berilishi;

Uning mohiyati tushuntirib berishi;

Tayanch tushunchalar, har bir mavzuga oid atamalar mazmunini bilishi;

Mavzu yuzasidan so'nggi yillarda fanda erishilgan yutuqlarni izohlab berishi lozim.

### **Nazorat savollari:**

1. Qadimgi Rim madaniyatining dunyo sivilizatsiyasida tutgan o'rnini izohlab bering.

2. Qadimgi Rim davlatining dunyo sivilizatsiyasida davlat boshqaruvi samaradorligini oshirish muammolari va ularni yechish yo'nalishlari nimalardan iborat?

3. Respublika davrida Rim sivilizatsiyasi.

4. Imperiya davrida Rim sivilizatsiyasi.

5. Rim madaniyatining dunyo sivilizatsiyasida tutgan o'rni.

### **Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. Bhuvan Garg. Teaching of history. India. New Delhi.: Rajat publications. 2010.

2. James B. M. Schick., Teaching History With a Computer: A Complete Guide for College Professors. USA. 2009.

3. Ispolzovaniye informatsionnix texnologiy v obuchenii istorii i ObshestvoznaniY. – M., 2009.

4. Paxrutdinov SH. Global axborotlashgan jamiyat va mediata'limning zaruriyati. – T.: XTXQTMOMI. [www.ziyonet.uz](http://www.ziyonet.uz)

5. Elektron universitet. Masofaviy ta'lim texnologiyalari. Oliy ta'lim muassasalari uchun/ A.Parpiyev, A.Maraximov, R.Hamdammov, U.Begimkulov, M.Bekmuradov, N.Tayloqov. O'zME davlat ilmiy nashriyoti.-T.: 2008, 196 b.

6. «Elektronniye interaktivniye doski – noviye texnologii v obrazovanii» (<http://www.smartboard.ru/>)..

### Кейс-методини амалга ошириш босқичлари:



### Кейс 1

“Web-xosting xizmatini tanlashlashda Siz aynan UZINFOCOM Markazining texnologik maydonchasidan foydalanishingizni asoslab bering?”

Mazkur keys rolli o‘yin ko‘rinishida amalga oshiriladi. Rolli o‘yin metodining asosiy maqsadi tinglovchilarni faqat tinglashi emas, balki bilimlarni o‘zlashtirishda bevosita ishtirokini ta‘minlash orqali ta‘lim jarayoni samaradorligini oshirishga qaratilgan. O‘yin har xil muammolarni hal etishdagi imitatsion faoliyatlarni tuzish uchun eng qulay asos hisoblanadi.

*(Ta‘lim jarayonida rolli o‘yinlardan foydalanish tinglovchilarni faol pozitsiyaga ega bo‘lishi, masala mohiyatini anglash va unga tezkor munosabat bildirishni taqozo etadi. Rolli o‘yinda ishtirokchilar faoliyati o‘yin kompleksidan stimol oladi. Ishtirokchilar o‘yin davomida vaziyatni tahlil qilishadi. Buning uchun*

*ularga hech kim yordam bermaydi. O'zlarini boshqarish va uyushtirishlari orqali natijalarga erishadilar. Ishtirokchilar murakkab vaziyatlar bilan bog'liq o'yin maqsadlariga shaxsiy harakatlari orqali erishadilar va xulosalarni o'zlari qabul qiladilar. Rolli o'yinlar ishtirokchilarda shaxslararo muomala malakasini shakllantiradi. Rolli o'yin boshqa o'yinlardan farqli maqsadi jamoaviy yoki individual qaror qabul qilishga va muammolarni yechimini debat orqali topishga asoslanadi)*

**Trening maqsadi:** tarix fanini o'qitishning zamonaviy texnologiyalari bugungi holati, muammolari va istiqbol masalalari haqida tushunchaga ega bo'lish hamda ularni hal etish choralari rol vazifasidan kelib chiqqan holda individual va jamoaviy holda izlash.

**Mashg'ulotni o'tkazish tartibi:** Ishtirokchilar “SJ”, “MM”, “P” va “G” belgilar tushurilgan jetonlarni tanlab 4ta guruhga bo'linadilar. Shundan so'ng trener bu timsollar nimani anglatishi va uning sohiblari qanday rolni bajarishlari kerakligi haqida tushuncha beradi. “G” – davlat va jamoa rahbarlari belgisi, “MM” - Mass media, OAVlari xodimlari belgisi, “SJ” – tarix pedagogikasi vakillari, blogerlar va “P” – jamoatchilik hisoblanadi. Trening shartlari tushuntiriladi. Shundan so'ng qisqa videokeys namoyish etiladi. Guruh a'zolari rolga kirishishlari uchun ularga A3 formatda qog'oz beriladi va har bir guruh o'z mavqeiga ko'ra ko'tarilgan masala bo'yicha amalga oshiradigan vazifalarini yozib chiqadi. Mazkur ishga 10-15 daqiqa vaqt ajratiladi. Shundan so'ng guruhlarining taqdimot ishi amalga oshiriladi.

Trening davomida guruh a'zolari muqobil guruhga ularning vazifalaridan kelib chiqqan holda savollar yoki e'tirozlar bilan murojaat qilishlari mumkin. Bu har bir ishtirokchining faol qatnashuvini ta'minlaydi, yakka tartibdagi faoliyatini belgilaydi. Mazkur stereotip qarashlarga o'z fikr-mulohazalarini bildirish, asoslash guruh a'zolaridan talab qilinadi. Trening yakunida uning natijalari xususida fikr almashilinadi. Va masala yechimi borasida aniq to'xtamga kelinadi.

**Qo'llanadigan vositalar:** ekran, qog'oz, flomaster, marker.




## Keyc 2

Tinglovchilar e'tiboriga rasm havola etiladi, unda aks etgan muammoni tarixiy material sifatida jamoatchilik e'tiboriga olib chiqish uchun bir qator savollar bo'yicha surishtiruv ishlari olib borish, sarlavha topish va voqea davomi sifatida original yechim va xulosa qilish vazifasi yuklatiladi.

1. Bu qanday holat? (vaziyat tushuntiriladi)
2. Nima sababdan bu holat yuz berdi? (Bir necha sabablar ko'rsatiladi)
2. Bu kabi holatlar oldi olinmasa qanday oqibatlarga olib kelishi mumkin? (Bir necha asosli fikrlar bildiriladi)

3. Unga qarshi qanday choralar ko'rish kerak? (Bir qator hal etish choralarini bildiriladi).

4. Xulosa qanday bo'ladi?



## VI. MUSTAQIL TA'LIM MAVZULARI

### Mustaqil ishni tashkil etishning shakli va mazmuni

Tinglovchi mustaqil ishni muayyan modulni xususiyatlarini hisobga olgan xolda quyidagi shakllardan foydalanib tayyorlashi tavsiya etiladi:

- meyoriy hujjatlardan, o'quv va ilmiy adabiyotlardan foydalanish asosida modul mavzularini o'rganish;
- tarqatma materiallar bo'yicha ma'ruzalar qismini o'zlashtirish;
- maxsus adabiyotlar bo'yicha modul bo'limlari yoki mavzulari ustida ishlash;
- tinglovchining kasbiy faoliyati bilan bog'liq bo'lgan modul bo'limlari va mavzularni chuqur o'rganish.

### Mustaqil ta'lim mavzulari

1. Yevropa va dunyo: okean xududi sivilizatsiyasining paydo bo'lishi
2. Informatsion va texnotron jamiyati
3. Globallashuv va sivilizatsiya
4. Sivilizatsiya tushunchasi tarixiy jarayonning tashlil qilishining yangicha usulidir
5. Bosqichli va lokal sivilizatsiyalarning nazariyasi
6. Sivilizatsiya tarixini o'rganish borasida XX asr tarixshunosligi
7. Islom sivilizatsiyasining asosiy xarakterli belgilari va o'ziga xos xususiyati
8. Islom sivilizatsiyasining rivojlanish bosqichlari
9. Islom jamiyati va ijtimoiy-diniy harakatlar
29. Mediata'lim: muloqot madaniyati
10. Qadimgi Krit va Miken jamiyati.
11. Ellada madaniyati.
12. Ilmiy bilimlar va din rivoji.
13. Rim sivilizatsiyasining o'ziga xosligi.
14. Respublika va imperiyacha boshqaruv.
15. Vizantiya va Rossiyada sivilizatsiya paydo bo'lishining shart-sharoitlari
16. Rim sivilizatsiyasining davomchisi.
17. O'rta asrlardagi Vizantiya madaniyati.
18. Rossiya sivilizatsiyasining o'ziga xosligi.
19. O'rta asrlar G'arb mafkurasi.
20. Industrial jamiyat.
21. G'arbda gumanizm.
22. Texnotron jamiyati.

## VII. GLOSSARIY

<b>№</b>	<b>Atama</b>	<b>O‘zbekcha</b>	<b>Inglizcha</b>
1	<b>Ra</b>	Qadimgi Misrdagi Quyosh hudosi	ancient Egyptian sun god
2	<b>Nubiya</b>	Misrning janubidagi hudud, hozirgi Sudan shimoliga to‘g‘ri keladi	Nubia is a region along the Nile river located in what is today northern Sudan and southern Egypt
3	<b>Pharaoh</b>	“Katta uy” qadimgi Misrda podsholik unvoni.	Pharaoh is the common title of the monarchs of ancient Egypt
4	<b>Hyksos</b>	Sahro hokimlari yoki II-o‘tish davrida quyi Misrni zabt etgan ko‘chmanchi xalqlar.	The Hyksos, a people that constituted the fifteenth dynasty of Egypt were of non-Egyptian origin
5	<b>Didaktik vositalar Didactic means</b>	o‘quv fanini o‘zlashtirish samaradorligini oshiruvchi pedagogik vositalar	these are pedagogical systems that help improve the learners’ education skills
6	<b>Didaktik material Didactic material</b>	foydalanilganda o‘quvchilarning bilim olishini faollashtirish, o‘quv vaqtini iqtisod qilishni ta‘minlaydigan o‘quv mashg‘uloti uchun mo‘ljallangan qo‘llanmalarining maxsus ko‘rinishi	a special view of annuels when you are using them, you will activate your knowledge, provide to econom studying time
7	<b>Masofaviy ta‘lim</b>	ta‘limni masofaviy o‘qitish usul va vositalari orqali tashkil qilish shakli	a construction of building distancial study
8	<b>Masofaviy ta‘lim tizimi</b>	masofaviy texnologiyalarni qo‘llab masofaviy ta‘limni tashkil etish va amalga oshirishga jalb qilingan o‘quv-tarbiyaviy,	that is a system of a construction of building distancial study

		tashkiliy, telekommunikatsiya, pedagogik va ilmiy manbalar majmuasi	
9	<b>Masofaviy o‘qitish</b> <b>Distancial studying</b>	axborot - kommunikatsiya texnologiyasi (kompyuterlar, telekommunikatsiyalar, multimedia vositalari)ga asoslangan, tegishli meyoriy hujjatlar asosida tashkillashtirilgan ta’lim shakli	that is a system of a construction of building distancial study using information technologies
10	<b>Daosizm</b> <b>Taoism</b>	qadimgi Xitoydagi falsafiy oqimlardan biri	religious or philosophical tradition of Chinese origin
11	<b>Minoy sivilizatsiyasi</b> <b>Minoan civilization</b>	Bronza davrida Krit orolida vujudga kelgan sivilizatsiya.	The Minoan civilization was an Aegean Bronze Age civilization on the island of Crete
12	<b>Oykumena</b> <b>Ecumene</b>	Yer yuzining odamlar yashaydigan qismi, chegarasi	the portion of Earth's surface occupied by permanent human settlement.
13	<b>Patritsiyalar</b> <b>Patricians</b>	Rimning qadimgi tub aholisi	the original aristocratic families of Ancient Rome,



## VIII. ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. Bobrov I.V. i dr. Istoriya mirovix sivilizatsiy chast I. Uchebnoye posobiye. Tyumen 2004
2. Bobrov I.V. i dr. Istoriya mirovix sivilizatsiy chast II. Uchebnoye posobiye. Tyumen 2004
3. “Drevniye sivilizatsii”. Pod obshey redaktsiyey Bangarda-Levina G. M. M., 1989.
4. Doniyorov A.X. – Sivilizatsiya tarixi o‘quv-uslubiy majmua. T. 2013
5. Yaspers K. “Smisl i naznachenkiye istorii”. M., 1991.

### Qo‘shimcha adabiyotlar

6. Shpengler O. “Zakat Yevropi. Ocherki morfologii mirovoy istorii”. T.1., M., 1993.
7. Gerodot “Istoriya v 9-ti knigax”. L., 1972.
8. “Drevneindiyskaya filosofiya. Nachalniy period” M., 1963.
9. Fukidid “Istoriya”. L., 1981.
10. “Mifologiya drevnego mira”. M., 1977.
11. Toynbi A. “Drevneyshiy Vostok v svete novix raskopok” M., 1956.
12. Kramer S. “Istoriya nachinayetsya v Shumere”. M., 1991.
13. Korostovsev M. A. “Religiya Drevnego Yegipta”. M., 1971.
14. “Istoriya kitayskoy filosofii”. M., 1988.
15. G‘ulomov X.G‘., Tatiboyev A.S. “O‘rta Osiyo va jaxon tarixi”. T., 1993.
16. Bolshakov O.G. “Istoriya Xalifata”. T.1., M., 1989.
17. Tarn V. “Ellinisticheskaya sivilizatsiya”. M., 1989.
18. Galich M. Istoriya dokolumbovix sivilizatsiy. – M., “Misl”, 1990.
19. Gubman B.L. Sivilizatsiya pered sudom istorii. Sbornik. Sankt-Peterburg, Progress, “Kultura”, “Yuventa”. 1996.
20. Rtveladze E.V., Saidov A.X., Abdullayev YE.V. Qadimgi O‘zbekiston sivilizatsiyasi: davlatchilik va huquq tarixidan lavhalar. – T., “O‘zbekiston”, 2001.
21. Gvido Mansuelli. “Sivilizatsii Drevney Yevropi”. Yekaterinburg. 2001.
22. Eshov B. Sivilizatsiya tizimida ilk shaharlar. Toshkent, 2005.

### Elektron manbalar

23. [http:// history.hanover.edu/texts.htm](http://history.hanover.edu/texts.htm)
24. [http:// www.ucr.eduG‘h-gig/horuslinks.html](http://www.ucr.eduG‘h-gig/horuslinks.html)
25. [http:// English www.hss.cmu.Edu/history](http://English www.hss.cmu.Edu/history)
26. [http:// www.ukans.edu/history/vl/](http://www.ukans.edu/history/vl/)
27. [http:// www.lib.muohio.edu/inet/subj/history/wwiiG‘index.html](http://www.lib.muohio.edu/inet/subj/history/wwiiG‘index.html)
28. [http:// www.lib.bY.edu/-rdh/www//](http://www.lib.bY.edu/-rdh/www//)
29. [http:// classics.mit.edu](http://classics.mit.edu).
30. [http:// www.washlaw.edu/forint//](http://www.washlaw.edu/forint//)
31. [http:// www.yole.edu/Lawweb/avolon.htm](http://www.yole.edu/Lawweb/avolon.htm)
32. [http:// www.yale.edu/acuns/](http://www.yale.edu/acuns/)

O'zbekiston milliy universiteti huzuridagi pedagog kadrlarni qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish tarmoq (mintaqaviy) markazi "TARIX" yo'nalishidagi mutaxassislik fanlaridan tayyorlangan "JAHON SIVILIZATSIYASI TARIXINING DOLZARB MUAMMOLARI" moduli bo'yicha qayta tayyorlash va malaka oshirish masofaviy kurslari uchun tayyorlangan materiallar talablarga javob berishi bo'yicha

#### EKSPERT XULOSASI


"TARIX" yo'nalishi qayta tayyorlash va malaka oshirish kursi mutaxassilik fanlaridan fanlaridan tayyorlangan "JAHON SIVILIZATSIYASI TARIXINING DOLZARB MUAMMOLARI" moduli bo'yicha test savollari, o'quv-uslubiy majmua, bitiruv ishi mavzulari hamda masofaviy materiallar mazkur modul bo'yicha tasdiqlangan namunaviy dastur doirasida tayyorlangan va unga qo'yilgan talablarga javob beradi hamda BIMM internet portaliga qo'yishga tavsiya etiladi.

Tarmoq (mintaqaviy) markazi  
direktori



O'.Tilavov

Bo'lim boshlig'i



O'.Muxamadiyev

"Jahon tarixi" kafedrasini mudiri

D.O'raqov

Tuzuvchi:

D.O'raqov